



FARG'ONA DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI



“ZAMONAVIY FALSAFANING DOLZARB MUAMMOLARI” MODULI BO‘YICHA

O‘QUV –USLUBIY MAJMUA

A.A.Qambarov - FarDU Falsafa
kafedrasи dotsenti, falsafa fanlari
nomzodi



2023

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi FarDU Ilmiy kengashining 2022 yil “26” dekabrdagi 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

A.A.Qambarov - FarDU Falsafa kafedrasи
dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

I.M.Arzimatova -FarDU Falsafa kafedrasи
mudiri, dotsent, falsafa fanlari nomzodi
D.E.Normatova - Falsafa kafedrasи
dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	4
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI	14
III.	NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	17
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	76
V.	GLOSSARIY	99
VI.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	107

I. ISHCHI O'QUV DASTURI

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil7 fevraldagagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlarihamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamdainnovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek kamaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

I. Modulning maqsadi va vazifalari

“Zamonaviy falsafaning dolzARB muammolari” modulining maqsadi: pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

“Zamonaviy falsafaning dolzARB muammolari” modulining vazifalari:

- “Falsafa” yo'nalishidagi pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma hamda malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta'minlash uchun zarur

bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

- “Falsafa” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta’minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

“Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” moduli bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- “Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” modulining umumnazariy masalalarini;
- Zamonaviy falsafaning jamiyat ma’naviy hayotidagi ahamiyatini;
- Zamonaviy falsafaningboshqa xalqlar falsafasi bilan dialektik bog‘liqligi, uning umumiyligini qonuniyatlari va dolzarb muammolari haqida nazariy bilimlarni bilishi kerak.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

№		Tinglovchilaning o‘quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			jumladan	
			jamii	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1.	Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni	2	2	2			
2.	Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati	2	2	2			
3.	Borliq falsafasi va uning zamonaviy konsepsiyalari	2	2	2			
4.	Fanda metod va metodologiya tushunchasi. Ilmiy bilish metodlari	2	2	2			
5.	Hozirgi zamon metodologiyasi: kumatoid, keys stadi, abduksiya	2	2		2		
6.	Analitik falsafaning vujudga kelishi	2	2		2		
7.	Analitik falsafaning funksional xarakteristikasi	2	2		2		
8.	Analitik epistemologiya	2	2		2		
9.	Tarkibiy funksional tahlil	2	2		2		
10.	Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari	2	2		2		
	Jami:	20	20	8	12		

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida

tutgan o‘rni (2 soat)

Reja:

1. Falsafaning ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi o‘rni va roli.Falsafaning boshqa fanlarga ta’siri, uning dunyoqarashlik va metodologik vazifalari.
2. Fan yutuqlarining falsafa tizimiga kiritilib borilishi.Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish.
3. Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimidagi o‘rni. Falsafiybilimlarning asosiy yo‘nalishlari va nazariy ildizlari.

2-mavzu: Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga

xos xususiyati (2 soat)

Reja:

1. Ijtimoiy taraqqiyot va falsafiy fikr, ularning o‘zaro bog‘liqligi.Kishilik jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida falsafiy dunyoqarashningo‘zgarishi dialektikasi, uning rivojlanishning tarixiy va ijtimoiyshakllari bilan bog‘liqligi.
2. Falsafiy fikrning ijtimoiy jarayonlardanilgarilab ketish yoki orqada qolish muammolari. Mustaqillik va falsafiytafakkurning o‘zgarishi zaruriyati.
3. Yangicha tafakkurni shakllantirishning falsafiy omillari.Yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlanirishda milliy mentalitet.

3-mavzu:Borliq falsafasi va uning zamonaviy

konsepsiyalari (2 soat)

Reja:

1. Ontologiya tushunchasi. Borliqning umumontologik talqinlari. “Materiya” tushunchasi va uning tarixiy talqinlari. Materiyaning zamonaviy talqinlari. Materiyaning tizimli tuzilishi.
2. Borliq tushunchasi. Borliqning turlari masalasi. Borliqqa mavjudliksifatida

yondashish. “Postmodern” borlig‘i.Borliqning asosiy shakllari to‘g‘risidagi masala. Tabiatobyektlarining tuzilishi. Hayot nima? Biosfera. “Inson borlig‘i”.“Ijtimoiy borliq” muammosi.XX asr o‘zbek falsafasiningasoschilari.

3. Noosfera – borliq shakli. “Noosfera” atamasi. “Noosfera” tushunchasi.Noosfera g‘oyasi.Ontologiyada olamning birligi masalasi. Olamning bir butunligi. Olamning birligi asoslari. Jamiyatning yangi taraqqiyoti bosqichida milliy falsafa matabining strategiyasi.

4-mavzu:Fanda metod va metodologiya tushunchasi.

Ilmiy bilish metodlari (2 soat)

Reja:

1. Falsafiy muammolarning tabiati va xususiyati. Ontologiya,gnoseologiya, aksiologya, logika falsafaning asosiy qismlari sifatida.

2. Falsafa: nazariya va metod. Falsafiy mushoxadaning tarixiy shakllari.Materializm va idealizm. Ratsionalizm va irratsionalizm. Mushohada vatajriba. Falsafa metodologiya sifatida, falsafaning metodologiktamoyillari: ratsionalizm, empirizm, krititsizm.

3. Dialektik metod va uning muqobillari. Dialektikaning tarixiyshakllari,Determinizm. Dialektika kategoriyalari. Sabab va oqibat. Zaruriyat,tasodif, ehtimollik. Qonun tushunchasi, qonun zaruriyatning ifodasisifatida. Determinizm va erkinlik muammosi. Falsafada germenevtik metod.

4. Ijtimoiy bilish. “Ijtimoiy bilish”, “Gumanitar bilish”, “Ijtimoiy-gumanitar bilish” tushunchalari. Gumanitarizm. Ijtimoiy bilishmetodologiyasi va tarix falsafasi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR

1-mavzu: Hozirgi zamon metodologiyasi: kumatoid, keys stadi, abduksiya (2 soat)

Reja:

1. Hozirgi sharoitda falsafa, metodologiya va xususiy fanlar o‘zaro munosabatning umumiy muammolari.
2. Metodologiya tushunchasi va fanning metodologik tahlili. Falsafiy metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va tuzish usullarihamda tamoyillari tizimi.
3. Hozirgi zamon metodologiyasi: kumatoid, keys stadi, abduksiya.

2-mavzu: Analitik falsafaning vujudga kelishi (2 soat)

Reja:

1. Analitik falsafa tushunchasi va uning vujudga kelishi hamda asoschilari.
2. Analitik falsafa hozirgi zamon G‘arb falsafasida neopozitivizm yo‘nalishining davomi sifatida.
3. Yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda analitik falsafa.

3-mavzu: Analitik falsafaning funksional xarakteristikasi (2 soat)

Reja:

1. Tildagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf qilish analitik falsafaning vazifasi.
2. Analitik falsafaning funksionalxarakteristikasi.
3. Jamiyatning yangi taraqqiyoti bosqichida analitik falsafa o‘rni va ahamiyati.

4-mavzu: Analitik epistemologiya(2 soat)

Reja:

1. Bilish falsafiy tahlil predmeti sifatida (gnoseologiya). Bilishobyektiv reallikning in’ikosi, dunyoga bo‘lgan tarixan rivojlanib boruvchimunosabat sifatida.
2. Sharq mutafakkirlari qarashlarida bilish masalalari. Bilishning obyekti va subyekti. Ularning o‘zaro munosabati. Bilishbosqichlari: hissiy va aqliy bilish.

3. Aqliy bilishning asosiy shakllari. Ijod vaintuitsiya. Bilishda “hissiylik” va “aqliylik”ning birligi.

5-mavzu: Tarkibiy funksional tahlil (2 soat)

Reja:

1. Funksional tahlil tushunchasi.
2. Funksional bog‘lanish tushunchasi.
3. Tarkibiy funksional tahlil.

6-mavzu: Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari (2 soat)

Reja:

1. Neorealizm tushunchasi va uning asosiy yo‘nalishlari.
2. Neorealizmningvujudga kelishi va uning asoschilar.
3. Lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ – 637- sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

- 8.Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
- 9.Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.
- 10.A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon» - 2015.- 155 b.
- 11.Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y.
- 12.Abdulla Sher. Estetika. / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston, 2015 y.
- 13.Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.- 318 6
- 14.Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Й.и др.Современнийе

образований технологии: педагогика и психология: монография. — Новосибирск: Издательство СРНС, 2015. — 318 с.
<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

- 15.B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.
- 16.Белогуров А.Й. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: МАКС Пресс, 2016. — 116 с. ИСБН 978-5-317-05412-0.
- 17.Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -1606.
- 18.Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
- 19.J.Rumi. Ichingdagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.
- 20.Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.YE.Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
- 21.Игнатова Н. Й. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал)УрФУ, 2017.– 128 с.
- 22.Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012.340-6
- 23.Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
- 24.L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.
- 25.L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018 y.
- 26.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoye posobiye. Rizograf imeni Nizami. 2018 g.
- 27.Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
- 28.Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.

- 29.Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
- 30.Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yang i asr avlodi. 2008.
- 31.Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019 y.
- 32.Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
- 33.Shermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
- 34.Shermuxamedova N.A. Borlik va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013,720 6
- 35.Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-6.
- 36.Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
- 37.Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Moliya, 2003.

IV. Internet saytlar

- 40.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
- 41.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
- 42.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
- 43.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET
- 44.<https://philpapers.org/> - mejdunarodnaya filosofskaya poiskovaya sistema po knigam, statyam, jurnalam, naxodyashimsya v otkritom dostupe
- 45.<https://plato.stanford.edu/> - Stenfordskaya ensiklopediya filosofii.
- 46.<https://elibrary.ru/> - krupneyshiy rossiyskiy informatsionno-analiticheskiy portal (v tom chisle) v oblasti filosofii

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

“Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning fan xususiyatidan kelib chiqqan holda deyarli barchasi tadbiq etilishi mumkin. Xususan, ma’ruza va seminarlar “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Menyu”, “B/B/B”, “Munozara”, “Rezyume” singari metodlar, slaydlar, multmedia namoyshlari bilan o‘tkaziladi. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini tulakonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan boglik ukish maksadlaridan kelib chikkap xolda yondoshilishni nazarda tutadi.

Shaxsga yunaltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chikkan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha buginlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini akllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishgannatijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilishorqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qaramaqshiligi va uni hal etish usullarini dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

O‘qishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O‘qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O‘qitish vositalari: o‘qishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blitz-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahdili asosida o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejorashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baxolash: o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs ohirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Excel" elektron jadvallar dasturlaridan foydalilanadi. Ayrim mavzular bo‘yicha tinglovchilar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog‘idagi rasmiy iqtisodiyko‘rsatkichlaridan foydalilanadi, tarqatma materiallar

tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi

“Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” darslari qiziqarli va tinglovchiga boy axborot beradigan bo‘lishiga yordam beradigan ulublar juda ko‘p. Lekin ular orasida falsafaning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo‘lgan “suqrotcha baxs”ga hech qaysi uslub eta olmaydi. Zero aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino kabi ko‘plab mutafakkirlarni etishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat etuk mutafakkirlarini kamolotga etkazishda davom etmoqda. Bu uslubni yaxshi bilish uchun mazkur dialoglarni chuqur o‘rganish kerak. Bugungi kunda ularning o‘zbek tilidagi tarjimasi amalga oshirilgani esa ishimizni yanada engillashtirdi. Bu uslub seminarda emas, balki faqat ma’ruzalar vaqtida o‘kaziladi. Bunda o‘qituvchi Suqrotning, tinglovchilar esa Suqrotning suhbatdoshi rollarini o‘ynaydilar. Mazkur metodni mashq orqaligina namoyish etish mumkin. Shuning uchun bu erda ushubu uslubga boshqa to‘xtalmaymiz. Lekin metodikadan o‘tkazadigan seminarlarimizda bu metodni maxsus mashq qilib ko‘ra olamiz. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu uslubni falsafani chuqurroq biladiganlar o‘zlashtirishi mumkin va maqsadga muvofiqdir. Falsafa darslarining xajmi juda qisqa bo‘lgan nofalsafa mutaxassisliklari darslarida esa uni qo‘llash uchun etarli vaqt topib bo‘lmaydi. Ammo bu uslub masalaning javobi baxs qatnashchilaridan biriga ayon bo‘ladigan platoncha (suqrotcha) dialog emas, albatta. Bu savollar va ularga javoblar to‘qnashuvi jarayonida kelib chiqadigan o‘z o‘zidan tashkillanishi kutiladigan nochiziqli kognitiv-kommunikativ muhitdir.

“Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” ni o‘rganishga endigma kirishganlar esa avval osonroq uslublar asosida o‘z tafakkurlarini rivojlantiradigan uslublar asosida ishlashlari maqsadga muvofiq. Shunday uslublar qatoriga “insert” uslubi turadi.

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1 MAVZU: FALSAFA FANINING ZAMONAVIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI (2 soat)

Reja:

1. Falsafaning ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi o'rni va roli. Falsafaning boshqa fanlarga ta'siri, uning dunyoqarashlik va metodologik vazifalari.
2. Fan yutuqlarining falsafa tizimiga kiritilib borilishi. Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish.
3. Falsafa fanining zamонавиy fanlar tizimidagi o'rni. Falsafiy bilimlarning asosiy yo'naliшlari va nazariy ildizlari.

Mavzuning tayanch iboralari: Falsafa, falsafaning milliyligi, o'zbek falsafasi, dunyoqarash, mifologik va diniy dunyoqarash, donishmandlik, nazariy bilim, falsafiy dunyoqarash, ontologiya, gnoseologiya, praksiologiya, metodologiya, metod, qonun, substansiya, metafizika, falsafaning funksiyalari, demokratiya, huquqiy davlat, erkinlik, ozodlik, mustaqillik, mafkura, ma'naviyat.

Ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichida hayotni yangicha fikrlash asosida tushuntiradigan nazariy bilimlarga ehtiyoj tug'iladi. Bu masala, tabiiyki, falsafiy tafakkur bilan uзвiy bog'langandir. Eskicha yashash tamoyillarini yangisi bilan almashtirishga ehtiyoj tug'ilgan paytda falsafa oldida quyidagi savollar turadi: endi qanday yashash lozim? Insonlar qaysi yo'ldan borishlari kerak, faoliyatları asosiga nimani qo'yish lozim? Odamlarning orzu-umidlarini, istaklarini qay yo'sinda amalga oshirish zarur? Yashashning ma'nosи nima? Bularga javob berish yangicha fikrlash tizimini yaratish bilan bog'langandir.

“Falsafa” atamasi yunonchadan olingan bo‘lib (“filosofiya”) donishmandlikni sevish degan ma’noni bildiradi. “Faylasuf” so‘zi birinchi marta qadimgi yunon olimi Pifagor (e.o.VI asr oxiri - V asr boshlari) tomonidan ishlatilgan.

Pifagorning fikricha, falsafaning ma’nosi - haqiqatni izlashdir. Bunday fikrni qadimgi yunon faylasufi Geraklit (e.o. 520-460) ham ilgari surgan edi. Aflatun (e.o.428-347)ning aytishicha, falsafaning vazifasi abadiy va mutloq haqiqatga erishishdir. Arastu (e.o.384-322) falsafaning vazifasi borliqdagi umumiylilikni ochish, predmeti esa borliqning birlamchi asoslari va sabablaridan iboratdir, degan fikrni bildiradi.

Sharqda ham falsafa haqidagi qarashlar juda qadimda yuzaga kelgan bo‘lib, u donishmandlik bilan aynan teng deb hisoblanadi, falsafa bilim haqidagi umumiyl tushunchadan ajratilmaydi. Eradan oldingi VIII asrda Hindistonda yaratilgan siyosat haqidagi “Artxashstre” kitobida ishlatilgan “darshana” degan tushuncha falsafani ta’riflash ma’nosida ishlatilgan. Markaziy Osiyoning qadimgi yodgorligi “Avesto”da ham “faylasuf” degan tushuncha o‘rnida donishmandni ifodalaydigan xratugina (donishmandlikka boradigan) va xaratupat (donishmandlikka etishgan) degan so‘zlar ishlatilgan. Buyuk mutafakkir Forobiy falsafa so‘zini hikmatni qadrlash deb talqin etgan. Xitoy falsafasida “chje-syue” (donishmandlik fani) degan atama XIX asrda shakllangan. Biroq bu qadimgi Hindistonda va Xitoyda falsafiy fikrlar bo‘lmagan degan ma’noni bildirmaydi.

Shunday qilib, falsafaning mohiyati haqida so‘z ketganda ayrim mutafakkirlar uni haqiqatni izlashda, boshqalari - haqiqatni o‘z shaxsiy manfaatlariga moslashtirishda deb tushunadilar; bir xillari o‘z fikrlarini osmon tomon, boshqalari esa - Yerga yo‘naltiradilar; bir xillari ollohga, boshqalari esa - odamga murojaat qiladilar; bir xillari uchun falsafa o‘z-o‘zicha ahamiyatga ega, boshqalari aytadiki, falsafa jamiyat va insonga xizmat qilishi kerak va h.k. Bularning barchasi falsafaga yondoshuvlarning xilma-xilligi, uning predmetini tushunishda turlicha qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Bu narsa, ayniqsa, XIX asrning II yarmida va XX asrda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu davrda nihoyatda rang-barang falsafiy maktablar, yo‘nalishlar yuzaga keldi, ularda borliq, bilish, inson va insoniyatning turli tomonlari falsafaning predmeti, bahs mavzui bo‘lib

xizmat qiladi. Biroq bular rang-barang falsafiy konsepsiylar o‘rtasida umumiy jihatlar yo‘q, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Falsafiy bilimlarga xos eng muhim jihatlar quyidagilarda ifodalanadi:

Birinchidan, borliqning eng umumiy masalalarini tadqiq etish. Bunda borliq muammosi universal ma’noda tushuniladi: borliq va yo‘qlik; moddiylik va ideallik; tabiat, jamiyat va inson borlig‘i. Borliq to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot ontologiya (ontos - mavjudlik, logos - ta’limot) nomini oldi.

Ikkinchidan, bilishning eng umumiy masalalarini tahlil etish. Olamni bilish mumkinmi, mumkin emasmi; bilishning imkoniyatlari, usullari, metod va maqsadlari; bilishning mohiyati nimada, haqiqat nima; bilishning obyekti va subyekti qanday ma’noga ega h.k. Bilish to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot gnoseologiya (gnozes - bilim, logos - ta’limot) nomini oldi.

Uchinchidan, jamiyat mavjud bo‘lishi va rivojlanishining eng umumiy masalalari. Sirdan bu masala borliq to‘g‘risidagi ta’limotda o‘z aksini topadi. Modomiki, jamiyat shaxs taraqqiyotiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatar ekan, uning sotsial sifatlarini shakllantirar ekan, shu bois falsafada bu sohani alohida ajratib ko‘rsatish mantiqan to‘g‘ridir. Falsafada ijtimoiy hayotni tadqiq etadigan soha ijtimoiy falsafa (sotsial falsafa) deb ataladi.

To‘rtinchidan, insonning eng umumiy va muhim masalalarini o‘rganish. Binobarin, inson falsafiy donishmandlikning asosi va so‘nggi nuqtasi bo‘lganligidan uni maxsus o‘rganish taqozo qilinadi. Hayotda mavhum ruh emas, balki konkret inson ijod qiladi, harakat qiladi. Inson falsafasi falsafiy antropologiya deb ataladi.

Demak, falsafa borliqning, bilishning hamda inson bilan olam o‘rtasidagi munosabatlarning eng umumiy tamoyillari to‘g‘risidagi ta’limotdir.

Albatta, bu qisqa ta’rif yanada kengroq talqin qilinishi va rivojlantirilishi lozim. Eng muhimi, falsafa hamma vaqt nazariya bo‘lib, o‘z kategoriylarini, ularning tizimini, tadqiqot qonuniyatlarini, metodlari va prinsiplarini nazariy ko‘rinishda aks ettirgan. Falsafiy nazariyaning o‘ziga xos tomoni shundaki, uning qonunlari, kategoriya va prinsiplari eng umumiy xarakterga ega bo‘lib, tabiat, jamiyat, inson va tafakkur hodisalariga nisbatan qo‘llaniladi. Iboradagi so‘nggi holatni ko‘zda tutadigan bo‘lsak,

falsafa tafakkur to‘g‘risidagi tafakkur hamdir. Falsafaning predmeti shubhasiz yana falsafaning o‘zini, uning tarixini o‘rganish masalasini ham o‘z ichiga oladi.

Har qanday falsafa dunyoqarashdir. (Falsafa olamga va odamga nisbatan eng umumiylar qarashlarning yig‘indisi hisoblanadi). Lekin har qanday dunyoqarash falsafiy emasdir. “Dunyoqarash” tushunchasi “falsafa” tushunchasiga nisbatan kengroqdir. Dunyoqarash falsafadan tashqari yana afsonaviy, badiiy, diniy va boshqa qarashlarni ham o‘z ichiga oladi.

Dunyoqarash, shu jumladan falsafa olamni in’ikos etishning mahsulidir. Biroq bu in’ikosning chuqurlik darajasi, ko‘lamli turlicha bo‘lishi mumkin. In’ikosning eng elementar ko‘rinishi sezgi darajasida sodir bo‘ladi. Bu dunyoqarashga tadbiq etilganda dunyoni sezish va dunyoni mushohada etishni bildiradi. In’ikosning navbatdagi ko‘rinishi - idrok va tasavvurdir. Bunday darajadagi dunyoqarash asosan hissiy tajriba bilan chegaralanadi, bu erda hissiyot va idrok aql ustidan ustivorlik qiladi. Tushuncha yordamida amalga oshirilgan in’ikos tufayli dunyoqarash shakllanadi, chunki voqeа va hodisa, jarayonlarning qonuniyatlari va mohiyatini ochishda tushuncha alohida o‘rin egallaydi. Tushuncha orqali in’ikos abstrakt tafakkur va nazariy bilish bilan bog‘lanadi. Tushuncha olamni eng chuqur aks ettiradi.

Dunyoqarash olamga va unda insonning o‘rni, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga nisbatan qarashlari tizimi bo‘lib, unda bilimlar, e’tiqodlar, kayfiyatlar, intilishlar, orzular, qadriyatlar, meyorlar, ideallar, maslaklar va h.k.lar uyg‘un tarzda ishtirok etadi. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o‘z aksini topadi.

Dunyoqarashning strukturasida to‘rtta qatlama mavjud:

Birinchi tarkibiy qism - bilish. U kundalik, professional, ilmiy va h.k. bilimlarning yig‘indisiga suyanadi; Ikkinchisi - qadriyatli-meyoriy qatlama. Bu o‘z ichiga qadriyatlar, ideallar, e’tiqodlar, maslaklar, meyorlar, ko‘rsatmalarni oladi; Uchinchisi - axloqiy-irodaviy qatlama. Bilimlar, qadriyatlar va meyorlar kishilarning amaliy hatti-harakatlarida yuzaga chiqishi uchun ular emotSIONAL-irodaviy jihatdan o‘zlashtirilishi, shaxsiy qarashlarga, e’tiqodlarga, maslaklarga aylanishi zarur, shuningdek faoliyat uchun

muayyan ruhiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmoq rolini o‘ynashi kerak. Ana shunday yo‘l-yo‘riqning shakllanishi dunyoqarashning emotsional-irodaviy qalami orqali amalga oshiriladi; To‘rtinchisi - amaliy qatlam. Dunyoqarash nafaqat nazariy bilimlar, qadriyatlar, e’tiqodlar, maslaklar, balki shu bilan birga insonning konkret shart-sharoitda ma’lum hulq-atvorni amalga oshirish uchun real tayyorgarlik darajasi hamdir. Amaliyotsiz dunyoqarash abstrakt, mavhum bo‘lib qoladi.

Demak, dunyoqarash insonning olamga munosabatini belgilaydigan, uning xulq-atvorini yo‘naltiradigan va tartibga solib turishda namoyon bo‘ladigan qarashlar, baholar, meyorlar va maqsadlar yig‘indisidir.

Afsonaviy dunyoqarash. Afsonalarda olamning vujudga kelishi, tuzilishi, tabiat hodisalarining siri, dunyoviy uyg‘unlik, odamning tabiat va kosmik hodisalar bilan aloqasi, o‘simlik va hayvonlarning odamga xos sifatlari haqida hikoya qilinadi. Afsonalarda odamning paydo bo‘lishi,

hayoti bosqichlari, o‘limi, hayot sinovlaridan o‘tishi haqida fikr yuritilgan. Undan tashqari, olovni topish, hunar egallash, dehqonchilik, turli urf-odatlar, rasm-rusmlar haqida afsonalar to‘qilgan.

Har qanday afsonaviy ong xayolda va xayol yordamida stixiyali kuchlarni engadi, ammo tabiatdan o‘zini ustun qo‘ymaydi.

Dunyoqarashning bu shakli ta’sirida turli ishonch, e’tiqodlar paydo bo‘lgan. Masalan, totem, fetish, sehrgarlik va ruhlarga ishonch - e’tiqodlar shular jumlasidandir. Bular yordamida odamlar birlashgan, hayot mashaqqatlarini hamkorlikda enggan, tabiatdagi stixiyali kuchlarga ta’sir ko‘rsatishgan. Bu intilishlar keyinchalik turlicha diniy imon-e’tiqodlar uchun asos bo‘lgan. Afsonaviy dunyoqarashga bugungi kunda ehtiyoj qolmagan bo‘lsada, ertaklar, sarguzashtlar, rivoyatlarda, adabiyot va sanoatning bir qator janrlarida saqlanib qolgan. Umuman afsonaviy dunyoqarash insoniyat madaniy taraqqiyotida muhim bir bosqich bo‘lgan. Afsonaviy dunyoqarashning xarakterli belgilari: emotsional- obrazli shakl. Bu xususiyat qahramonlar, xudolarning obrazlarini yaratishda namoyon bo‘ladi; tabiatni jonlantirish. Bu xususiyat inson fazilatlarini tevarak-olam hodisalariga ko‘chirishda, kosmosni, tabiat kuchlarini gavdalantiishda va jonlantirishda

ko‘zga tashlanadi. Mifologiyada tabiat bilan inson olami, tafakkur bilan emotsiyalar, badiiy obrazlar bilan ilmiy bilimlar o‘rtasida qatoiy chegaralanish yo‘q; afsonaviy dunyoqarashda refleksianing ishtirok etmasligi. Refleksiya - bu inson ongi, fikrining o‘z ongi ustidan; o‘z qarashlari, psixologik holatlari, ularni baholash bo‘yicha fikr yuritishi; o‘zining fikri yuzasidan fikr yuritish; amaliy yo‘naltirilganlik: mifologiyada dunyoqarash muammolari amaliy vazifalar bilan (muvaffaqiyat, baxtli hayot, ochlikdan saqlanish, salomatlikni ehtiyyot qilish) aloqadorligi.

Diniy dunyoqarash afsonaviy va sodda dunyoqarashning bevosita ta’sirida shakllangan. Qur’oni Karim, Injildan o‘rin olgan odam haqidagi rivoyatlar Turon va Bobil afsonalariga yaqin bo‘lgan. Masalan, Islomda ham olam zardushtiylik, Bobil va Injil kosmogoniyalidagi kabi uch qismga - osmon, er va narigi dunyoga bo‘lingan. Jahannam so‘zi yahudiycha “genna” so‘zidan olingen bo‘lib, muslimonlarning tasavvurida 7 qavatdan iborat: birinchisida munofiqlar, ikkinchisida misr fir’avnları o‘z ayonlari bilan, uchinchisida dahriylar, to‘rtinchisida avroqchi, afsungarlar, beshinchisida xristianlar, oltinchisida yulduzparastlar, ettinchisida yo‘ldan adashib gunoh qilgan mo‘minlar jazolanishi kerak, deb hisoblanadi. Dunyo daraxti, Olam tog‘i, olamning ulkan odam qiyofasidagi manzarasi to‘g‘risidagi diniy afsonalar ham mifologik dunyoqarashning mahsulidir.

Qadimgi yunonlarda Orfey madhiyasida (eramizdan avvalgi VI asrda Yunonistonda vujudga kelgan diniy ta’limot) Zevsning boshi bilan go‘zal chehrasi charog‘on osmonu, ko‘zları Oy va Quyosh deyiladi; nafasi-havo, oyoqlari - er hisoblanadi. Eramizning I asriga mansub bo‘lgan afsonalarda Odam Atoning vujudi haddan tashqari bahaybat qilib tasvirlanadi, uning oyoqlari erga tegib tursa, boshi osmonga taqaladi. Injilda Odam Ato 930 yil yashagan, deyiladi.

Diniy dunyoqarashning afsonaviy dunyoqarashdan farqi shuki, unda dunyo ikkiga - bu dunyo va u dunyoga bo‘linadi. Bu dunyoqarash go‘yo g‘ayritabiiy kuchlar borligiga, ularning insonlar taqdiriga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishiga qatoiy ishonchga asoslanadi. Avvalo ko‘p xudolikka, keyingi 2,5 ming yilda yakka xudolikka ishonch paydo bo‘lib, hozir er yuzi aholisining dinga ishonuvchi qismi asosan yakka xudolikka sig‘inadi.

Odamlar diniy dunyoqarash orqali o‘z orzu-umidlarini ifodalaganlar, o‘zlari yaratgan tasvirlarga o‘xshab yashashga intilganlar. Umuminsoniy qadriyatlar shu tarzda avaylab saqlangan va rivojlantirilgan.

Falsafiy dunyoqarash. Dastavval “filosofiya” tushunchasi keng ma’noda insoniyat tomonidan to‘plangan nazariy bilimlarning yig‘indisini bildirgan.

Falsafa mifologiya va dindan nimalarni meros qilib oldi, degan savol tug‘ilishi mumkin. Falsafa ularning dunyoqarash xarakterini, dunyoqarash sxemalarini, ya’ni umuman olamning paydo bo‘lishi, uning tuzilishi, insonnig yuzaga kelishi va uning borliqdagi o‘rni haqidagi masalalarni meros qilib oldi. U yana butun insoniyat taraqqiyoti davomida to‘plangan ijobiy bilimlarni meros qilib oldi. Biroq falsafada yuzaga kelgan dunyoqarash muammolari ulardan farq qilib, ratsional baho, aql nuqtai nazaridan hal etiladi. Shuning uchun falsafa nazariy shakllangan dunyoqarashdir. Falsafa - umuman olamga, unda insonning o‘rni, insonning insonga munosabatini ifodalaydigan umumnazariy qarashlar tizimidir. Shunday qilib falsafa dunyoqarashni bilimlar shaklida namoyon etadi va tizimga soladi. Bu narsa falsafa bilan fanni bir-biriga bog‘lovchi muhim haqiqatdir.

Voqelikni falsafiy o‘zlashtirishning muhim bir tomoni substansionalizm hisoblanadi. (lot. “substansiya” - asosda turadigan mohiyat degani).

Substansiya borliq, tabiat, jamiyat, inson va bir butun olamdagি barcha narsa-hodisalarning asosini tashkil etadigan birlamchi narsadir. U moddiy yoki ruhiy shaklda bo‘lishi mumkin. Chunonchi, qadimgi olimlarning bir guruhi moddalarning biron-bir turini, masalan, suv, havo, atom va shunga o‘xshaganlarni ana shunday tarzda izohlaganlar. (Materializm)

Ba’zi mutafakkirlarning fikricha, substansiya - bu mayjudlikning asosi bo‘lgan mutloq g‘oya, ruh yoki subyekt ongidir. Chunonchi, qadimgi yunon faylasufi Pifagorning aytishicha, substansiya sonlardir. Aflatun substansiya deganda g‘oyalarni nazarda tutadi. Nemis olimi Kant nazarida, substansiya tajriba bergen ma’lumotlarni umumlashtiruvchi tafakkurning aprior shaklidir. Gegel “mutloq g‘oya”ni substansiya deb qaraydi.(Idealizm) Dekart esa substansiya masalasini ko‘rib chiqqanda dunyoning negiziga ham materiyani,

ham ruhni qo‘ygan.

Falsafa tarixida dastlabki vaqtarda substansiya hamma narsani tashkil etadigan modda deb tushunilgan. O‘rtalashtirishda substansiya Al-Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlarida moddiy asos, mohiyat sifatida talqin etilgan. Keyinchalik butun koinotning asosida turgan substansiya xudoning maxsus nishonasi deb tushuniladi (sxolastika).

Falsafa tarkib topgan bilimlar tizimi sifatida o‘ziga xos bir qator muammolarga egadir. Shulardan biri yuqorida ko‘rganimiz “falsafa nima?” degan masaladir. Uni hal etish asosida har bir faylasuf o‘z konsepsiyasini yaratadi. Uni hal qilish uchun konkret muammolarni aniqlab olinadi, u yoki bu kategoriyalardan foydalilanadi. Har bir falsafiy tizim o‘zining bosh muammofiga ega bo‘lib, bu narsa uning asosiy mazmunini va mohiyatini ifodalagan. Chunonchi, antik zamon faylasuflari uchun olamning mavjudligi haqidagi masala ana shunday ma’noga ega bo‘lgan. Sokrat buni “o‘z-o‘zingni bil” degan tamoyil bilan bog‘laydi, yangi zamon faylasuflari uchun bu - bilish qanday amal qiladi, degan muammodir.

Biroq falsafiy tafakkurning xarakterini yoritishga xizmat qiladigan umumiyligi muammolar ham mavjud. Ular ichida quyidagilar: “Nima birlamchi: ruhmi yoki materiya, ideallikmi (ma’naviylik) yoki moddiylikmi?” - degan muammo asosiylardandir. Borliqni umumiyligi tushunish bu masalani hal etishga bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, borliqda moddiylik va ideallikdan tashqari hech narsa yo‘q, uni turlicha hal etishdan materializm va idealizm, degan yirik falsafiy yo‘nalishlar kelib chiqqan.

Materializm va idealizm haqidagi masalaga kengroq to‘xtalib o‘taylik. Materializm va idealizmga bo‘linish falsafa taraqqiyotining qadimgi davrlaridan boshlangan. Nemis faylasufi G.V.Leybnits (1646-1716) Epikurni eng yirik materialist, Aflatunni esa eng ulkan idealist deb atagan edi. Nemis faylasufi F.Shlegel (1772-1829) shunday yozgan edi: “Materializm hamma narsani materiyadan kelib chiqib tushuntiradi, izohlaydi, uni butun narsalarning qandaydir ibtidosi, manbai sifatida idrok etadi... Idealizm hamma narsani ruhdan keltirib chiqaradi, materiyaning paydo bo‘lishini ruhdan kelib chiqqan, deb hisoblaydi yoki materiyani unga bo‘ysundiradi”.

Materializm ham, idealizm ham o‘zining namoyon bo‘lishi jihatidan bir xil emas. Shunga ko‘ra materializm va idealizmning turli shakllarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Materializmning quyidagi asosiy tarixiy shakllari mavjud:

Qadimgi Sharq va Qadimgi Yunon materializmi. Materializmning bu dastlabki shakli tashqi olamning narsa-hodisalarini ongdan tashqarida mavjud moddiy tuzilmalar va elementlarning holati tarzida qarab chiqadi (vakillari- Fales, Levkipp, Demokrit, Geraklit va b.).

Yangi zamonning metafizik (mexanistik) materializmi (Yevropa). U tabiat hodisalarini tushunishga asoslanadi. Olamning xossalari harakatning asosan mexanik shakliga bog‘lab izohlaydi (G.Galiley, F.Bekon, J.Lokk, J.Lamerti, K.Gelpvetsiy va b.).

Dialektik materializm: materializm va dialektika uzviy birlikda beriladi. (K.Marks, F.Engelps)

Materializmning yana quyidagi turlarini ham qayd etish lozim:

Izchil materializm: materializm tamoyillari ham tabiatga, ham jamiyatga tatbiq etiladi (marksizm);

Noizchil materializm: unda jamiyat va tarixni materialistik tushunishga E’tibor berilmaydi (L. Feyyerbax). Uning o‘ziga xos shakli deizm (teo lot.-xudo) bo‘lib, vakillari xudoni e’tirof etsalar-da, biroq uning rolini pasaytirib yuboradilar: xudo materiyani yaratgan, harakatga dastlabki turtki bergen, xolos (F.Bekon, J.Toland, Franklin, M.Lomonosov).

Vulgar materializm: Vulgar materializm ideallikni moddiylik bilan, ongi materiya bilan aynan tenglashtiradi (Foxt, Moleshot, Byuxner).

Idealizm ong, ruh, tafakkur birlamchi, materiya, tabiat, borliq ikkilamchi deb talqin qiluvchi falsafiy qarashlar tizimi bo‘lib, birinchi galda obyektiv va subyektiv ko‘rinishlarga egadir.

Obyektiv idealizm dunyoning asosida inson ongidan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmanan ruhiy ibrido (g‘oya, olamiy aql) yotadi, deb hisoblaydi. (Aflatun, F.Akvinskiy, Shelling, Gegel). Subyektiv idealizm inson ongidan tashqaridagi obyektiv reallikni inkor etib, faqat subyektiv sezgilar mavjud, deb hisoblaydi.(J.Berkli, D.Yum, G.Fixte).

Ruhiy ibtido qanday tushunilishiga qarab idealizmning turli ko‘rinishlari yuzaga kelgan: panlogizm (olamiy aql), volyuntarizm (olamiy iroda), idealistik monizm (yagona ruhiy mohiyat), plyuralizm (ko‘pdan ko‘p birinchi unsur), idealistik ratsionalizm (mantiqiy anglab olinadigan ibtido), idealistik empirizm, sensualizm va fenomenalizm (sezgilarning hissiy xilma-xilligi), irratsionalizm (bilib bo‘lmaydigan, qonuniyatga bo‘ysunadigan, mantiqqa zid ibtido).

Birlamchi ibtido bilan monizm, dualizm, plyuralizm haqidagi masalalar o‘zaro bog‘langan. Monizm olamning asosida yagona, bitta ibtido, boshlang‘ich asos turishini e’tirof etadigan falsafiy konsepsiya (yo moddiy asos, yo ma’naviy asos) dir. Shu sababli monizm materialistik va idealistik shaklda bo‘lishi mumkin.

Dualizm ikki asosni teng deb e’tirof etadigan falsafiy konsepsiya: olamning asosida teng holda ham materiya, ham ong yotadi. Masalan, R.Dekart borliqning negizida ikki teng substansiya (ruh va materiya) yotadi, deb hisoblaydi.

Plyuralizm bir nechta yoki ko‘plab ibtidoiy asoslar yotishini nazarda tutadi. Masalan, qadimgi mutafakkirlar butun borliq asosiga rang-barang ibtidolar (suv, er, havo, olov, yog‘och, temir va h.k.)ni qo‘yanlar.

Borliqning boshlang‘ich ibtidosi bilan bog‘liq holda uni bilish mumkin-mumkin emasligi haqidagi masala bog‘lanib ketadi. Ayrim mutafakkirlar fikricha, bilishning haqiqiyligi haqidagi masalasini hech qachon hal qilib bo‘lmaydi: olamni prinsip jihatdan bilish mumkin emas. Bundaylar agnostik (Protagor, Kant)lar, shunday falsafiy yo‘nalish agnostitsizm deb nom olgan. Uning ko‘rinishlardan bo‘lgan skeptitsizm bilimlarning haqiqiyligiga shubha bilan qaraydi. (qadimgi yunon Pirron va b.). Boshqa mutafakkirlar aksincha, aql va bilishning qudratiga ishonadilar va insonning obyektiv olamni bilish qobiliyatini tan oladilar. Har bir fan o‘z metodiga egadir. Biroq falsafa eng umumiyl metodologiya ekan, uning metodi nafaqat voqelikni nazariy va amaliy o‘zlashtirishning, shu bilan birga falsafiy bilimlarni vujudga keltirish va asoslashning usuli hamdir.

Boshqa fanlar metodlari singari falsafiy metod ham o‘z asosini kishilarning amaliy faoliyatidan oladi va o‘z manbaiga ko‘ra obyektiv voqelik rivojlanishining mantig‘i va qonuniyatlarini ifodalaydi. Bu narsa faqat fanga suyanadigan falsafagagina xosdir.

Falsafiy metod tadqiqotning umumiy prinsiplarini qo'llab quvvatlaydi. F.Bekon aytganidek, uni yo'lni yoritadigan mashoalga o'xshatsa bo'ladi. Biroq turlicha falsafiy maktablar va oqimlar falsafa predmetini qanday tushunishiga qarab turlicha falsafiy metodlarni tarkib toptiradi va ulardan foydalanadi. Falsafiy konsepsiyalarning plyuralizmiga metodlarning plyuralizmi muvofiq keladi.

Falsafiy metodlarni tasnif qilishda asosan dialektika va metafizika nazarda tutiladi. Dialektika borliq va bilish taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatları haqidagi ta'limot bo'lib, ayni vaqtida voqelikni o'zlashtirishning umumiy metodi hamdir. Dialektikaning yuzaga kelishi va tarkib topishining negizlari antik zamon bilan bog'langandir. Bu bosqich ko'pincha stixiyali yoki sodda dialektika deb yuritiladi. Sababi ilk faylasuflarning olamga qarashlari oddiy kuzatishga asoslangan bo'lib, ko'p jixatdan sodda bo'lgan. Shu bilan birga ular dialektikani turlicha tushunishgan.

Chunonchi, materialist Geraklit o'z ta'limotida olamning doimiy o'zgarishi va xarakteriga, unda ziddiyatlarning aks-teskariga aylanish masalasiga, eng avvalo «narsalar dialektikasi»ga, obyektiv dialektikaga e'tiborni qaratgan. Shu davrda yashagan Suqrot va Aflatun dialektika deganda munozara olib borish sanoatini tushungan, shu yo'l bilan haqiqatga erishish mumkinligini e'tirof etgan. Demak, bu erda gap «tushunchalar dialektikasi», subyektiv dialektika haqida boradi.

Demak, dialektika materializm sohasida ham, idealizm sohasida ham qo'llaniladi: materialistik dialektika va idealistik dialektika. Idealistik dialektikaning mumtoz naomunasi (dialektik idealizm) Gegel tomonidan vujudga keltirilgan, u bilish nazariyasi va metodi sifatida dialektik sistemani yaratgan. Materialistik dialektikaning asoschilar K.Marks, F.Engelsdir.

Metafizika metod sifatida olamning bir xil, statik manzarasini yaratadi, borliqning u yoki bu momentlari va ko'rinishlarini mutloqlashtiradi va yakka holda qarab chiqadi. Hozirgi davrda ulardan tashqari tafakkur taraqqiyotining umumiy yo'nalishini ko'rsatuvchi gumanistik dialektika, sinergetika, germenevtika, strukturalizm, ruhiy tahlil kabi yangi falsafiy metodlar paydo bo'ldi, ular keng qo'llanilmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan falsafiy metodlar o'zaro bir-biri bilan bog'langan, o'zaro

uzviy aloqadorlikka ega, yaxlit bir tizimni tashkil etadi, ularni olamni bilish va o‘zlashtirishning umumiy metodologiyasi deb atash mumkin. Shular bilan bir qatorda falsafa, yuqorida aytganimizdek, alohida nazariya sifatida ham amal qiladi, shu sababli o‘zining kategoriyalari, qonunlari va prinsiplariga egadir. Falsafaning umumiy metodologiya va alohida nazariya sifatidagi belgilari o‘zaro uzviy bog‘langan. Falsafiy nazariya o‘zining qoidalari, qonunlari va prinsiplarining umumiyligi bilan boshqa fanlar uchun metodologiya bo‘lib xizmat qiladi.

Falsafaning bahs mavzui va o‘ziga xos xususiyatlarini uning funksiyalari haqidagi masalani hal qilmay turib to‘la ochib bo‘lmaydi.

Eng avvalo, bu dunyoqarash funksiyasidir. Bu funksiya olamni mavhum-nazariya hamda tushunchalar orqali izohlashi bilan dunyoqarashning barcha turlari va darajalaridan ajralib turadi.

Metodologik funksiya. Uning ma’nosи shundaki, falsafa metod sifatida umumiy ta’limot va inson tomonidan voqelikni bilish hamda o‘zlashtirishning eng umumiy metodlari yig‘indisidir.

Prognostik funksiya. Bu funksiya materiya va ong, inson va olam taraqqiyotining eng umumiy tendensiyalari haqidagi farazni anglatadi. Falsafa fanga asoslansa, ehtimollikning faraz darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Falsafa nazariy tafakkur va donishmandlik maktabi sifatida ham funksiya bajaradi. Bu narsa ayniqsa falsafa tarixini o‘rganishga dahldordir.

Falsafaning tanqidiy funksiyasi. Bu funksiya nafaqat boshqa fanlarga, balki falsafaning o‘ziga nisbatan ham qo‘llaniladi. «Hamma narsaga shubha bilan qarash» degan prinsip antik zamondan boshlab qo‘llanilib kelinadi.

Falsafaning tanqidiy funksiyasi bilan uning aksilogik funksiyasi uzviy bog‘langan (grekcha aksios - qadrli). Har qanday falsafiy tizim o‘zi o‘rganayotgan obyektni muayyan qadriyatlar nuqtai nazardan baholaydi: sotsial, axloqiy, estetik, mafkuraviy va h.k. Bu funksiya ijtimoiy taraqqiyotning o‘tish davrlarida alohida rolp o‘ynaydi (mustaqillik va qadriyatlar). Chunki bu davrlarda eski qadriyatlardan qay birini davom ettirish masalasi kelib chiqadi.

Sotsial funksiya. Bu funksiya ko‘p yoqlama xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy hayotning rang-barang jihatlarini qamrab oladi. Umuman olganda falsafa ikki yoqlama vazifani bajaradi, birinchidan, sotsial borliqni tushuntirish, ikkinchidan, uning moddiy va ma’naviy o‘zgarishlariga ta’sir etish.

Insonparvarlik funksiyasi. Buning ma’nosi shundaki, falsafa har bir individ hayotida gumanistik qadriyatlar va ideallarni shakllantirish, hayotning ijobiy ma’no-maqsadlarini tasdiqlashga xizmat qilishi kerak. Demak, u intellektual davolash rolini bajaradi, ayniqsa, jamiyatda beqarorlik yuz berganda, eski qadriyat va ideallar minbardan tushib, yangilari hali shakllanishga ulgurmagan yoki obro‘ qozona olmagan paytlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekistonning milliy mustaqillikka erishuvi natijasida barcha ijtimoiy fanlar sohasida bo‘lganidek, falsafaning muammolariga bo‘lgan munosabat ham tubdan o‘zgardi. Sho‘ro tuzumi sharoitida falsafa boshidan kechirgan buhronlar haqida alohida to‘xtalib o‘tish imkoniyatiga ega emasmiz. Shunday bo‘lsa-da, quyidagilarni alohida ta’kidlashimiz lozim: asrlar davomida qaror topgan qadriyatlar to‘g‘risida totalitar tuzum sharoitida falsafaning erkin fikr yuritishiga imkon berilmadi; marksizm g‘oyalariga asoslangan falsafa insoniyat falsafiy tafakkurining oliy cho‘qqisi hisoblandi; yakka mafkura, turg‘un dunyoqarash hukmronlik qildi; sinfiy va partiyaviy prinsip asosiy mafkuraviy mezonga aylantirildi; totalitar siyosiy tuzum manfaatlariga xizmat qilgan marksistik falsafa taraqqiyot talablariga zid fikr yuritishni talab qildi, aqidaparastlik, avtoritar tuzum g‘oyalarini targ‘ib qilish falsafaning yagona maqsadi bo‘lib qoldi. Falsafaning jamiyat taraqqiyoti, inson bilimlari ma’naviy yuksalishidagi o‘rni, ahamiyati ongli ravishda toraytiriladi. Eng muhimi, milliy falsafa va uning boy merosini erkin o‘rganish va o‘zlashtirishga keskin qarshilik qilib kelindi.

Milliy mustaqillik tufayli ma’naviyatimizning barcha sohalarida keskin, tub o‘zgarish yuz berdi. Bu narsa falsafaga ham to‘la dahldordir. Falsafaga yondoshuv negizada milliy mafkuramizning asosiy tamoyillari muhim o‘rin oldi: chuqr ilmiylik, xolislik, jahon xalqlari ma’naviyati tizimida xalqimiz ma’naviy, falsafiy merosining o‘rnini tadqiq etish, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash va hokazo.

Yangi falsafa o‘z oldiga quyidagi vazifalarni maqsad qilib qo‘ydi: birinchidan, barcha falsafiy ta’limotlarni o‘rganish; ikkinchidan, turli xil dunyoqarashlar va fikrlar xilma-xilligiga, hurfikrlilikka asoslanish; uchinchidan, milliy zaminda umuminsoniy qadriyatlarga tayanish; to‘rtinchidan, mustaqillik muammolari tahlilini bosh maqsad deb bilish, sinfiylik va partiyaviylik hamda aqidaparastlikni butunlay rad etish; beshinchidan, xalqimizni yuksak vatanparvarlik, sharqona axloq-odob meyorlari ruhida tarbiyalash,

O‘zbekistonning milliy mustaqillik yillarida erishgan tajribalari falsafiy tahlil va umumlashtirish uchun etarli material bera oldi. O‘zbekistonning ana shunday tajribasini anglash va falsafiy tahlil qilish deganda nimani tushunish mumkin? Buning ma’nosи shuki, bir tomondan, mamlakatimizning qisqa davrda bosib o‘tgan yo‘lini jahon taraqqiyoti umumiyo‘nalishlari doirasida qarab chiqish, jahon sivilizatsiyasi umumiyo‘nalishiga O‘zbekistonning kirib borish tajribasi, boshqa tomondan, bu tajribani yaxlit holda, ya’ni siyosiy-iqtisodiy, ma’naviy jihatdan tahlil etish, alohida va umumiyo‘jihatlarning munosabatini falsafiy jihatdan asoslashdir.

Anglashiladiki, falsafiy tafakkur sohasida o‘zgarish va yangilanishlar yuz bermoqda.

Mustaqillik davrida falsafa yangilanishning obyektiv va subyektiv zaminlari barpo etildi. Bunday zaruriy shart-sharoit haqida so‘z ketganda, birinchi galda moddiy-iqtisodiy asoslarni tilga olish lozim. Bozor munosabatlarining shakllanishi, shu asosda iqtisodiy pluralizmning qaror topish bosh yo‘nalish qilib olindi, ayni vaqtida aholini ijtimoiy himoyalash ustivor masalaga aylandi, bu esa falsafiy tafakkur o‘zgarish va yangilanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Har qanday ijtimoiy tuzumda falsafa ijtimoiy-siyosiy omillar ta’sirida o‘z tamoyillarini ishlab chiqadi. Shu jumladan, respublikamiz jahon hamjamiyatining teng huquqli aozosiga aylangan ekan, ayni vaqtida mazmunan yangi siyosiy tizim va ijtimoiy tuzilmalarning hamkorlikdagi faoliyati tufayli u ijtimoiy-siyosiy reallik kasb etmoqda. Bu jarayon milliy qadriyatlarga asoslangan yangi falsafaning ijtimoiy-siyosiy tabiatini, tamoyil va tushunchalarini yaratishda asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma’naviy islohotlarning falsafa

yangilanishiga ta'siri beqiyosdir. Buning ma'nosи shuki, xalq ma'naviyati poklanmoqda, qadriyatlar tiklanmoqda, bu sohadagi faoliyat kengayib bormoqda, tarix falsafasi, xalq xotirasi, boy ma'naviy merosni o'rganish borasida ulkan ishlar qilinmoqda. Bu esa falsafa yangilanishida ma'naviy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Falsafa yangilanishning subyektiv omili - ongning o'zgarishi, tafakkur erkinligi, falsafiy plyuralizm bilan bog'liq masaladir. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin: falsafiy ong va dunyoqarash o'zgarayotgan va yangilanayotgan ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida yangilanmoqda; o'tish davri zaruriyati, tub ijtimoiy islohotlarning yo'naliшlaridan biri sifatida tarixiy zaruriyatni ifodalaydi; nafaqat umumiy ma'naviy muhit, balki jamiyat har bir aozosining ruhiyati, maqsad va ehtiyojlari sohasidagi o'zgarish hamdir; ma'naviy-falsafiy merosni egallash negizida falsafada yangi yo'naliшlar tarkib topmoqda.

Falsafa sohasidagi o'zgarish va yangilanishlar mafkuraviy jarayonlar bilan o'zaro bog'langandir.

Falsafiy dunyoqarashni yangilashning zaruriy jihatlarini quyidagi yo'naliшlar bilan bog'liq holda tushuntirish mumkin: a) kelajagi buyuk davlat barpo etilmoqda; b) fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat qurish haqidagi g'oyalar tarkib topmoqda; v) siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotdagi o'zgarishlarni xalqimiz ongiga singdirish zaruriyati kun tartibiga qo'yilmoqda; g) har bir fuqaroda O'zbekiston Konstitutsiyasi g'oyalarini e'tiqodga aylantirish jarayoni davom etmoqda; d) jamiyatda osoyishtalikni va xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashning roli ortib bormoqda.

Shunday qilib falsafiy dunyoqarash tizimini shakllantirish va rivojlantirishning obyektiv-subyektiv imkoniyatlari qaror topmoqda. Bular quyidagilarda aniq namoyon bo'lmoqda: jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlangan; fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy haq-huquqlari qonuniy tarzda kafolatlangan; jamiyatning barcha sohalarini demokratlashtirish va erkinlashtirish davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda; aholining ma'naviy-ma'rifiy salohiyati yuksalmoqda.

Agar biz O'zbekiston taraqqiyotini jahon yo'naliшlari kontekstida qarab chiqadigan bo'lsak, shu narsa ayon bo'ladiki, mustaqillik tufayli O'zbekiston o'ziga xos,

o‘ziga mos ijtimoiy tizimni vujudga keltirdi. Uni tarkib toptirishda milliy va jahon siyosiy tarixining eng yaxshi anoanalaridan ijobiy foydalanildi. Tabiiyki, bunda respublikamizning o‘ziga xos xususiyatlari ustivor darajada o‘rin egalladi. O‘zbekiston andozasini belgilaydigan asosiy omillari quyidagilar kirishi mumkin: Yevroosiyo yo‘lida hal qiluvchi o‘rin tutish, er osti boyligining ko‘pligi; energetik va suv resurslariga boyligi; qulay tabiiy muhit; demografik vaziyat; milliy jihatdan aholi tarkibining xilma-xilligi; xalq turmush tarzida sharq sivilizatsiyasining keng o‘rin tutishi; ulkan iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lishlik; mehnat resurslarining boyligi; ilmiy va intellektual kuchlarning o‘sganligi va h.k.

Taraqqiyotning "o‘zbekona" andozasining asosiy mazmunini I.A.Karimov tomonidan belgilab berilgan besh tamoyil tashkil etadi: iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi; davlatning bosh islohotchi ekanligi; qonunning ustivorligi; kuchli ijtimoiy siyosat; bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish. O‘zbekistonning yangicha falsafasi yo‘nalishiga sharqona demokratiya xususiyatlari, o‘tish davri ijtimoiy-iqtisodiy negizlari, ma’naviyat muammolari, jahon hamjamiyatida integratsiya jarayonlari ham ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdulla Sher. Axlokshunoslik. Darslik. -T.: UFMJ, 2010.
2. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. - T.:Uzbekiston, 2016.
3. Osnovi filosofii. Uchebnik. Izdaniye 2-ye, pererabotannoje, dopoln. /Pod red.M.A.Axmedovoy, V.S.Xana. - T.: Mexnat. 2004.
4. Pulatova D. , Izzetova E. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-b
5. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
6. Xusanov B. Gulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: Iktisod- moliya, 2010.
7. Sharipov M. Fayzixujayeva D. Mantik. -T.: Universitet, 2007.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
9. Plutarx. Saylanma. Z.A’lam va Urfon Otajon tarjimasi. - T.: Yangi asr avlodii,

2006.

10. Pulatova D., Kodirov M., Axmedova M. va boshk. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. Ukuv kullanma. -T.: TDSHI.2013.
 11. Pulatova D.,Ruzmatova G., Jalolova U.Axlokshunoslik. Ukuv kullanma. - T.: TDSHI.2013.
 12. Pulatova D.A.,Fayzixujayeva D.E. Mantik.Ukuv kullanma.T.:TDSHI., 2013.
 13. Soifnazarov I. Kurs leksiy po filosofii. - T.: TDIU, 2004.
- Tulenov J.,Tulenova G.,Tulenova K.Falsafa.Darslik.-T.:Fan va texnologiya, 2016.

Yopiq test savollari

Savol	Javob
Falsafa“ atamasining lug‘aviy ma’no	
Qadimgi Yunon falsafasida atomlar nazariyasining asoschisi kim?	
Abu Rayxon Beruniyning yozgan asarlarini aniqlang?	*«Xindiston», «Osor al-boqiya», «Geodeziya»
Beruniy gnoseologiyada qaysi pozitsiyani yoqlagan?	sensualizmni

2 - MAVZU: DUNYONI FALSAFIY IDROK ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI (2 SOAT)

Reja:

1. Ijtimoiy taraqqiyot va falsafiy fikr, ularning o‘zaro bog‘liqligi. Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti jarayonida falsafiy dunyoqarashning o‘zgarishi dialektikasi, uning rivojlanishning tarixiy va ijtimoiy shakllari bilan bog‘liqligi.
2. Falsafiy fikrning ijtimoiy jarayonlardan ilgarilab ketish yoki orqada qolish muammolari. Mustaqillik va falsafiy tafakkurning o‘zgarishi zaruriyati.
3. Yangicha tafakkurni shakllantirishning falsafiy omillari. Yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda milliy mentalitet.

Mavzuning tayanch iboralari: Olam, monizm, dualizm, pluralizm, substansiya, substrat, individual olam, ijtimoiy olam, real olam, virtual olam; borliq, yo‘qlik, mavjudlik, reallik, materiya, fazo, vaqt, harakat; narsalar borlig‘i, tabiat borlig‘i, inson yaratgan buyumlar borlig‘i, inson borlig‘i; ma’naviy borliq, individual borliq, ijtimoiy borliq.

Borliq nima degan masala hamisha falsafiy tafakkurning asosi bo‘lib kelgan. Kishilarning olam to‘g‘risidagi ilmiy- falsafiy dunyoqarashini tarkib toptirishda ularning borliq haqidagi qarashlari alohida o‘rin tutgan.

Hozirgi zamon falsafiy adabiyotlarida “borliq” tushunchasini tor va keng ma’noda qo‘llash hollariga duch kelamiz. Tor ma’noda “borliq” ongga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv olam, keng ma’noda - bu barcha mavjud narsalardir.

Borliq to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlar qadimgi dostonlarda, ertaklarda, diniy madhiyalarda uchraydi. Bu masalada qadimgi Hind, Xitoy, yunon yodgorliklari katta material berishi mumkin.

Qo‘hna Hindistonda yaratilgan qadimgi diniy madhiyalarda, xususan “Maxabharata”, “Rigveda”, “Ramayana”, “Upanishad”larda odamning yaratilishi xususida gap borganda, “yo‘qlik” va “borliq” haqida ma’lumotlar beriladi. “Rigveda”da aytishicha, olamning paydo bo‘lishida “asat”deb ataluvchi ibtido bosh rolni o‘ynagan. “Asat” imkoniy borliq, ya’ni “yo‘qlik” demakdir. “Asat” asta-sekin “sat”(“mavjudlik”)ka aylangan.

Qadimgi Xitoyda keng tarqalgan daosizmning asoschisi Lao-szining fikricha, “borliq” asosida “dao” yotadi. U “si” elementi bilan birgalikda hayot negizini tashkil etadi. Qadimgi yunon falsafasida, ayniqsa Geraklit qarashlarida bu masala muhim o‘rin tutgan. Uning fikricha, ayni bir jism ayni vaqtida ham “mavjud”, ham “mavjud emas”. Demokrit aytadiki, “borliq” “yo‘qlik” bo‘lishini talab etadi. Borliq “qattiqlik” yoki moddiylikdir. “Yo‘qlik” esa “bo‘shliq”dan iborat, ammo har ikkalasi ham mavjuddir. Aflatun borliq deganda moddiy jismlarni tushungan. Narsalar borlig‘ini g‘oyalar dunyosi borlig‘idan farqlagan. Aflatun borliqni “chin” va “chin bo‘lmagan”ga ajratadi. G‘oyalar dunyosi “chin”, narsalar dunyosi esa “chin bo‘lmagan”ga kiradi. Aflatun olamni narsalar borlig‘iga bo‘lib yuborish bilan birga, ayni vaqtida “g‘oyalar” dunyosi mavjudligini narsalar borlig‘i bilan qo‘sishga urinadi.

Yaqin va O‘rtta Sharq falsafasida Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Ibn Rushd kabilar borliqni ikkiga - vujudi mumkin va vujudi vojibga bo‘ladilar. Ularning falsafasida borliqning bosh sababchisi Alloh (vujudi vojib)dir. Demak, Alloh va u yaratgan narsalar bir-birlari bilan o‘zaro bog‘langan birlikni tashkil etadi. Chunonchi, Jomiy shunday yozadi: “Tangrini olamdan ajralgan deb hisoblama, zeroqi, barcha olam tangridadir, Tangri esa olamda”.(Qarang: B. Iskandarov. Tasavvuf falsafasi. T. 1995, 21b.)

Borliq muammosining hayotiy ildizlari va falsafiy ma’nosi ni tushunib etish muhimdir. Borliq va yo‘qlik to‘g‘risidagi tasavvurlar qanday paydo bo‘lgan? Insoniyat qadimdan bosholab olam borlig‘i, o‘z borlig‘i, o‘zgalar borlig‘i ustida bosh qotirgan. Olam azaldan bormi? Yoki yaratilganmi? Odamlar-chi? Odam tug‘iladi, yashaydi, voyaga etadi, bir kun kelib olamdan ko‘z yumadi, u bor edi, bo‘lgan edi, endi yo‘q, lomakon bag‘riga singib ketadi, yo‘qlik sari yo‘l oladi. Tug‘ilish bor ekan, o‘lim haq. Bu - hayot qonuni.

Samad Vurg‘un to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “to‘rt faslni o‘tkazmoqlik tabiatga bir qonun, tug‘ilmoqlik va o‘lmoqlik bu hayotga bir qonun”.

Inson hayotidagi fojialar ichida eng dahshatlisi o‘limdir. O‘lish vahimasi odamlar irodasini o‘ziga rom qilgan. O‘lim nima? U borliqmi yoki yo‘qlikmi? Odamlar uni bilishga qiziqqanlar, javob izlaganlar. Chunonchi, V. Shekspir Gamlet tilidan quyidagilarni bayon qilgan edi: “Yashash kerakmi, o‘lish kerakmi? Nadir afzal? Mana masala. O‘lish unutilish, u qandayin diyorki, unga borgan yo‘lovchi ko‘p, ammo undan qaytgan biror bir yo‘lchi yo‘q.”

Demak, borliq keng ma’noda mavjudlik to‘g‘risidagi eng umumiyl tushunchadir. Borliq va reallik g‘oyat keng tushunchalar - sinonimlardir. Borliq mavjud barcha ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan narsalar. Bular - moddiy narsalar, jarayonlar (fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy, ruhiy, ma’naviy va x.k.), bu -ularning xossalari, aloqalari va munosabatlaridir. Fantaziyaning mahsuloti bo‘lgan ertaklar, miflar, eng nozik xayollar - bular ham ma’naviy reallikning ko‘rinishlari, borliqning tarkibiy qismi sifatida bor narsalardir.

Borliqning teskarisi “Yo‘qlik” hisoblanadi. Borliq va Yo‘qlik biri-birisiz mavjud emas, agar ularning bir-biriga o‘tishi bartaraf qilinsa, hamma narsa o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Nega? Chunki harakat to‘xtashi mumkin, bunda mavjudlik o‘zining muhim, asosiy va ajralmas belgilaridan mahrum bo‘ladi. Eng qattiq kristallar, yulduzlarning to‘dalanib to‘planishi, u yoki bu o‘simpliklar, hayvonlar, insonlar go‘yo Yo‘qlikdan kelib chiqqandek bo‘ladi, (ular xuddi shunday tarzda hech qachon bo‘lmagan), borliqqa aylanadi. Narsalarning borlig‘i qanchalik uzoq vaqt davom etmasin, nihoyasiga etadi va konkret sifat tarzi (deylik, shaxsan shu inson)da Yo‘qlikka ketadi.

Borliq va Yo‘qlik muammosi shu qadar hayotiyki, u hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib turibdi. Insoniyatning yashab qolishini ta’minalash, borlig‘ini ta’minalash, termo-yadro urushining Yo‘qlik sari dahshatli qadam qo‘yishining oldini olish hamma vaqt muhim masaladir.

Olam borlig‘i vaqt ichida abadiymi - o‘tkinchimi? Fazoda-chi? Makonda cheklanganmi yoki cheklanmaganmi? Hayot va mamot masalasi-chi? Bu savollar borliq

kategoriyasini ilmiy o‘rganishni kun tartibiga qo‘yadi. Yaxlit olam borlig‘i bilan odam borlig‘ini qiyoslasak, inson hayoti bu jarayonda kapalak umriga qiyos etgulik. (G‘.G‘ulom) Hayot shu qadar tez o‘tadiki, konkret odamning hayoti juda qisqa ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Borliqning falsafiy ma’nosini chuqurroq tasavvur etish uchun uning konkret shakllarini ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi.

Falsafiy adabiyotlarda borliqning quyidagi shakllari mavjudligi e’tirof etiladi:

Narsalar, tabiiy jarayonlar borlig‘i. Tabiiy borliqning birinchi ko‘rinishi insonga qadar, inson va uning ongidan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan moddiy borliq hisoblanadi. Moddiy borliq - bu narsalar, ularning xossalari, munosabatlari, jarayonlari borlig‘idir. "Narsa" tushunchasi o‘z xossasiga ega va boshqalar bilan munosabatda bo‘ladigan predmetni, obyektni bildiradi. "Xossa" predmetdagi boshqa predmetlar bilan o‘xhash yoki o‘xshamaydigan tomonlardir. "Bog‘lanish" - olamning abadiy taraqqiyotidagi alohida momentni bildiradi. Shu ma’noda barcha narsa-hodisalar o‘zaro ta’sirda va o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Obyektlarning bir-biriga ta’siri va shu asosda ularning o‘zgarishiga olib keladigan hodisa "o‘zaro ta’sir" deyiladi. Bularni odatda "birlamchi tabiat" iborasi bilan tushuntiradilar. Tabiiy borliqning bu shakli inson faoliyatining dastlabki sharti sifatida mavjud bo‘lgan tabiiy narsa-hodisalar va jarayonlardir. Inson paydo bo‘lgach, ularga ta’sir eta boshlaydi, bu jarayonning uzoq va muntazam ravishda amal qilishi oqibatida inson qo‘li bilan yaratilgan narsa-hodisalar va jarayonlar yuzaga keladi. Bularni oldingilardan farqlash maqsadida “ikkinci tabiat” deb ataydilar.

“Birlamchi tabiat” borliqning alohida maxsus shaklidir. Bunda bir butun tabiat borlig‘ini uning alohida narsalari, jarayonlari, holatlari borlig‘idan farq qilish lozim.

Yaxlit tabiat borlig‘i fazo va vaqt doirasida cheksizdir, u doimo va hamma joyda mavjud bo‘lgan, mavjuddir va mavjud bo‘ladi. Lekin tabiatga xos bu asl xislat uning alohida hodisalari, jarayonlari, holatlariga bir butunicha dahldor bo‘lmasligi mumkin. Binobarin, ular paydo bo‘lish, o‘zgarish, rivojlanish, so‘nish jarayonlarini boshidan kechirib turadi. Tabiat bir butun, o‘tkinchi emas deb fikrlaganimizda, uning yaxlit o‘zini

emas, balki uning ayrim, konkret hodisalariga xos xususiyatni nazarda tutgan bo‘lamiz, demak, tabiat emas, uning alohida hodisalari o‘tkinchi. Shu manonoda tabiat o‘tkinchimas va o‘tkinchilikning uzviy birligidan iborat.

Insonni qurshab olgan tabiat tushunchasiga tabiatning o‘zidan tashqari yana inson yaratgan buyumlar ham kiradi. Inson aqli va mehnati bilan yaratilgan narsalar “ikkinchi tabiat” ekanligi yuqorida ta’kidlab o‘tildi. U “birlamchi tabiat”dan nimasi bilan tafovut qiladi? Avvalam bor, inson qo‘li bilan yaratilganligi, unga inson mehnati va bilimi sarflanganligi bilan farqlanadi, deb javob berish mumkin. “Ikkinchi tabiat”da inson mehnati va bilimlari “predmetlashadi”, unda “ijtimoiy ruh” gavdalanadi. “Ikkilamchi tabiat” mahsulotlari muayyan ijtimoiy vazifani bajaradi. Masalan, dastgoh. U mato to‘qiydi, inson maqsadlarini obyektivlashtiradi. "Ikkinchi tabiat" - sivilizatsiyalashgan borliqdir.(telemarkazlar, muzeylar, teatr, kiyim-bosh, komppyuter va h. k.)

Borliqning har ikkala ko‘rinishi o‘zaro ayniyat va tafovut birligini bildiradi. Birlamchi tabiat cheksiz, chegarasiz, o‘tkinchi bo‘lmagan borliq, lekin uning ayrim hodisalari, masalan, odam o‘tkinchidir. "Ikkinchi tabiat" da tabiat qonunlari emas, balki insonning qayta yaratuvchilik qonunlari amal qiladi. Har ikki tabiat biri-biri bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lsa ham, ular o‘rtasida to‘qnashuv darajasiga etib boradigan munosabatlар ham yo‘q emas. Bu o‘rinda hozirgi paytda yuzaga kelgan ekologik, energetik muammolarni eslash kifoya. I.A.Karimov aytganidek, “tabiat va inson o‘zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo‘ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o‘nglab bo‘lmas ekologik halokatlarga olib keladi” (I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. 112-113-Betlar).

Inson borlig‘i. Alovida odam borlig‘i hamda insoniyat borlig‘i o‘ziga xos hodisadir. Shuningdek, ularning har ikkalasiga xos bo‘lgan umumiylit ham bor. Inson tanasi tabiatniki, shu ma’noda u jismlar ichidagi jismdir. Uning tabiatga tegishli bo‘lgan jismi o‘tkinchi. Odam umrini nechog‘lik darajada uzaytirishga urinmaylik, birinchi galda u tabiat jismi bo‘lib qolaveradi. Ayni vaqtida odamning insoniy mohiyatga egaligi, ijtimoiy munosabatlarni o‘zida gavdalantirganligini hisobga oladigan bo‘lsak, uni “narsa” yoki “obyekt” tushunchalari bilan belgilash unchalik to‘g‘ri emas. Ming afsuski, sovet

zamonida inson ishlab chiqarishning oddiy murvatiga aylantirilgan edi. Mustaqillik tufayli insonning haqiqiy mohiyati, milliy qiyofasi, tarixiy o‘rni tiklanmoqda.

Biologik jihatdan odam tanasi, jismi oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa moddiy ne’matlarga katta ehtiyoj sezadi. Inson borlig‘i nechog‘lik o‘ziga xos bo‘lmisin, birinchi galda u tana va jon birligi, jonli mavjudotning turi sifatida yashashi uchun zaruriy moddiy ehtiyojlarni qondirishi zarurdir. Tana yashamasa, odam yashay olmasligini isbot qilish shart emas. Ayni vaqtda insonning fikrlashi uchun tanasiga zarur moddiy oziq lozim. Bundan har bir individ o‘zining shaxsiy hayotini saqlab qolish huquqi kelib chiqadi. Bunday huquqning boshlang‘ich nuqtasi hayotni, individ hayotini ta’minalash va nihoyat insoniyat yashab qolishiga erishishdan iboratdir.

Insonning tabiiy-biologik “o‘lchovi” ehtiyotkorlikni talab qiladigan hodisadir. Inson organizmiga xos ekologik muvozanat nisbati buzilsa, falokatli oqibatlarga olib kelishi ehtimoldan yiroq emas. Shuningdek, inson jismi uning ruhiyati bilan uzviy bog‘langan. Tana va ruh sog‘lomligining ahamiyati haqida to‘xtab o‘tirishning xojati bo‘lmasa kerak.

Nihoyat, inson mehnat sohibi sifatida ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Odam, uning tabiiy ehtiyoji va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mayjud. Demak, tabiiy tana bilan ijtimoiy borliq o‘rtasida o‘zaro uzviy birlik bor.

Inson borlig‘ining o‘ziga xos xususiyatlari uch muhim o‘lchov-meyorga ega. Birinchidan, alohida odam-fikrlovchi va his etuvchi jism. Ikkinci o‘lchov inson - aqli mohiyat. Uchinchidan, inson - ijtimoiy-tarixiy mavjudot. Demak, inson tabiiylik, ma’naviylik, individuallik, shaxsiylik va ijtimoiylikning yig‘indisidan iborat.

Ma’naviy borliq. Ma’naviy hayot - inson borlig‘ining tarkibiy bo‘lagi. Ma’naviyat inson bilimlari, axloqiy, huquqiy qarashlari tizimi, badiiy ijodiyotning meyor va mezonlari majmuidan iborat. Ma’naviy borliq - ong va ongsizlik jarayonlari, tabiiy va sun’iy tillarning moddiylashgan shakllarida gavdalangan bilimlardan iborat. Ma’naviy borliqni uning mayjudlik shakllariga qarab turib ikki turga bo‘lib o‘rganish mumkin. Birinchisini - individ ongi va ruhiyati bilan bog‘langan individuallashgan ma’naviy borliq, ikkinchisini individ ongidan tashqarida turuvchi obyektivlashgan ma’naviy borliq

deyish mumkin.

Individuallashgan ma’naviy borliqqa quyidagilar kiradi: alohida olingan kishining his-tuyg‘ulari, ichki ruhiy kechinmalari, orzu-istiklari, xotirasi, taassurotlari, fikrlari, xayollari, qarashlari, g‘oyalari, ong osti va ongsizlik jarayonlari va x.k. Inson fikrlari real, lekin u ma’naviy ko‘rinishdagi reallik. Ongning barcha shaxsiy hamda ijtimoiy fenomenlari borliq ma’nosiga ega. Bu erda faqat reallikning turlicha darajalari bo‘lishi mumkin, xolos.

Ko‘paytirish jadvalini olib ko‘raylik. Bu reallikmi-yo‘qmi? Albatta, reallik. Qanday reallik? Albatta, moddiy, ashayoviy emas, ma’naviy-ramziy reallik. Bu jadvaldagi ko‘paytirish prinsipining o‘zi ham reallik, albatta, ideal reallik, biroq endi u ramziy emas, balki sof reallikdir.

Individuallashgan ma’naviy borliqning quyidagi xususiyatlari mavjud: birinchidan, unda sodir bo‘layotgan jarayonlarni tashqaridan kuzatish mumkin emas. Ikkinchidan, unga xos jarayonlar individning dunyoga kelishi bilan shakllanadi, olamdan o‘tishi bilan yakun topadi. Umuman borliqning bu shaklini ruhiyatshunoslik fani ustivor darajada o‘rganadi.

Obyektivlashgan ma’naviy borliq esa inson ongida paydo bo‘lgan g‘oyalari, fikrlari, qarashlarning ong doirasidan tashqariga chiqib, narsalar shaklida gavdalanishidir. U tabiiy va sun’iy tillarning obrazli belgilarida, sanoat asarlarida, madaniyat obidalarida mujassamlashadi. Uning bir ko‘rinishi nutqdir. Til o‘zida ongni reallashtiradi, yuzaga chiqaradi, umuman tilda fikr moddiylashadi. Tilning moddiy vositalari tovushlar, so‘zlar, gaplar va x.k. Bundan tashqari, insoniyat yaratgan yodgorliklar, kitoblar, notalar, ranglar, kuylar, raqlar, loyihalar, modellar ma’naviy borliqning obyektivlashgan ko‘rinishlaridir.

Ijtimoiy borliq. Ijtimoiy borliq individual, yakka shaxs va jamiyat borlig‘ining birligini bildiradi. “Ijtimoiy borliq deyilganda, individual yakka shaxs va jamiyat hayotining hamma tomonlari emas, balki faqat ularning moddiy hayoti tushuniladi”. (Falsafa. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 1999, 176-bet). Gap shundaki, kishilarning moddiy hayoti ularning xohish-irodalariga bog‘liq bo‘limgan holda ishlab chiqarish munosabatlaridan (uni o‘zida jamlovchi iqtisodiy hayot)dan iboratdir. Shu ma’noda

ijtimoiy borliq jamiyatning yaxlit moddiy hayotini, moddiy ne'matlar yaratish va ishlab chiqarish jarayonida kishilar amalga oshiradigan munosabatlarni nazarda tutadi.

Anglashiladiki, borliq abstrakt falsafiy kategoriya bo'lib, mazmunan mavjud narsalarning barchasini qamrab oladi. Biroq real olamni mavhum borliq emas, balki predmetlar, narsalar, jarayonlarning konkret xilma-xilligi tashkil etadi. Planetamizda minerallarning 30000 xili, o'simliklarning 50000 turi mavjud. Fanga xayvonlarning 2 mln. turi ma'lum. Yer yuzining turli xududlarida ko'plab xalqlar yashaydi, rang-barang mamlakatlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjud. Yer planetasidan tashqarida faqat bizning Galaktikada 100 mlrd yulduz bor. Olamning bu o'ta rang-barang manzarasi haqida o'y surar ekan, inson quyidagi muammolarga duch keladi: olam qanchalik rang-barang, turli-tuman bo'lishiga qaramay, borliqning butun turini birlashtiradigan qandaydir birlik, qandaydir asos mavjudmi, agar shu narsa mavjud bo'lsa, u nimadan iborat? Bu muammoni hal etishga intilish falsafada monizm, dualizm va pluralizm ta'limoti, ularning mohiyatini ifodalaydigan substansiya kategoriysi ishlab chiqilganligi ma'lum. Bu haqdabirinchi ma'ruzamizda aytib o'tildi.. Endi borliq mavjudligining usullari va shakllari to'g'risidagi masala bilan tanishib o'taylik.

Biz bu erda borliq tushunchasi bilan materiya tushuncha o'rtasidagi xususiy va umumiyligi jihatlarni belgilab olishimiz lozim. Materiya borlig'i borliq tushunchasiga nisbatan tor ma'noga ega, chunki materiya tushunchasiga borliqning hamma shakllari (mas. ma'naviy borliq) kirmaydi.

Shunday bo'lishiga qaramay, "materiya" tushunchasi haqida qisqa bo'lsa-da to'xtab o'tish lozim. Binobarin "borliq" tushunchasi birinchi galda "materiya" tushunchasida konkretlashtiriladi. "Materiya" kategoriysi, yuqorida aytilganidek, obyektiv reallikni ifodalaydi. "obyektiv reallik" nima? Bu - inson ongidan tashqarida va unga bog'liq bo'lмаган narsalardir; materiya - bilib olinadigan obyektiv reallikdir.

Bunday ta'rif juda keng va materianing ongga bog'liq emasligi, undan tashqarida mavjud bo'lishi, shuningdek uni bilish mumkinligini ko'rsatadi, xolos. Biroq materianing yana shunday xossalari borki, ular butun materiya uchun ham, ayrim olingan moddiy obyekt uchun ham xosdir.

Aytish kerakki, borliqning tegishli shakllari va turlariga muvofiq harakat ham moddiy va ma’naviy shaklda yuz berishi mumkin. Adabiyotlarda moddiy harakatning quyidagi shakllari mavjudligi qayd etiladi: mexanik harakat, fizik harakat, kimyoviy harakat, biologik harakat, ijtimoiy harakat. Alohida insonning va jamiyatning ma’naviy, tafakkur faoliyati bilan bog‘langan barcha jarayonlar harakatning ideal- ma’naviy shakliga kiradi.

Borliq mavjudligining asosiy struktural shakllariga fazo va vaqt kiradi. Fazo va vaqt deganda nima nazarda tutiladi? Biz kundalik amaliyotimizda mazkur masalaga aloqador ko‘p tushunchalarga duch kelamiz: “joy”, “ko‘lam”, “masofa”, “tekislik”, “chuqurlik”, “uzunlik”, “kenglik”, “uzoqlik”, “yaqinlik”, “torlik”, “bu er”, “u er”, “balandlik”, “pastlik”, “o‘ng”, “chap”, “oldin”, “avval”, “hozir”, “keyin”, “erta”, “yaqinda”, “uzoq”, “lahzada”, “butun”, “kecha”, “ertaga”, “hozirda”, “o‘tmish”, “kelajak”, “shu payt” va x.k. Bu va shunga o‘xhash tushunchalar umumiy va xususiy belgilarga ega bo‘lgan voqealarning fazo-vaqt nuqtai nazaridan xususiyatlarini bildiradi.

Adabiyotlarda yozilganidek, fazo va vaqtning xossalari materianing xossalari bilan belgilanadi, materiya esa cheksizdir, g‘oyatda rang-barangdir, demak, fazo va vaqt ham shunga ko‘ra rang-barangdir.

Fazo va vaqt harakatlanuvchi borliq bilan o‘zaro bog‘langan. Fazo va vaqtning umumiy tomonlari mavjud:

birinchidan, fazo ham, vaqt ham – obyektiv;

ikkinchidan, fazo va vaqt borliq, mavjudligining umumiy shakli;

uchinchidan, ular o‘zaro uzviy bog‘langan;

to‘rtinchidan, ular borliq va harakat bilan chambarchas bog‘langan; beshinchidan, fazo va vaqt miqdor va sifat tomonidan cheksiz va chegarasiz;

oltinchidan, fazo va vaqt o‘z tuzilishiga ko‘ra uzluklilik va uzlucksizlikning birligidan iborat.

Fazo va vaqt o‘z belgilariga ham egadir. Fazo uch o‘lchovlidir: uzunligi, eni va balandligi. Vaqtning o‘lchovi esa bittadir: o‘tmishdan bugungi kun orqali kelajakka tomon yo‘nalish. U qaytarilmasdir, takrorlanmasdir.

Fazo va vaqt to‘g‘risidagi falsafiy qarashlar muhim metodologik ahamiyatga egadir. Ayniqsa, kishilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ularning roli kattadir. Vaqtning takrorlanmasligi, qaytmasligi inson dunyoda bir martagina yashashini ko‘rsatadi, unga ko‘ra bu hayotni ma’naviy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, dunyoga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo‘lish inson hayotining ma’no va mazmunini tashkil etish kerak. Yoshlarning Vatan va vaqt to‘g‘risidagi oqilona fikrlarini shakllantirish, shu asosda hayot kechirishlariga ko‘maklashishda fazo va vaqt to‘g‘risidagi falsafiy, ilmiy konsepsiya muhim tarbiyaviy, ma’naviy omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bizga ma’lumki, tabiatni falsafiy tahlil qilish qadimdan boshlab hozirgacha faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Qadimgi yunon falsafasida ham, o‘rta asr Sharq falsafasida ham, yangi davr G‘arb falsafasida ham tabiatni falsafiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Falsafaning bu sohasi tabiat falsafasi yoki naturfilosofiya deb atalgan.

Tabiat tushunchasi juda keng ko‘lamda ishlatiladi. Tabiat mavjud narsalarni - yulduzlar, galaktika va metagalaktika sistemalari, makon va zamondagi eng kichik zarrachalardan tortib o‘simpliklar, insonlar olami - hamma-hamasini o‘z ichiga qamrab oladi. Biroq tabiat tushunchasining torroq ma’nosи ham bor. Bu inson va insoniyat yashashining tabiiy sharoitlari majmuidir. Bu tabiiy muhit yoki geografik muhit deb ham yuritiladi.

Odatda tabiat o‘ziga xos qonuniyatlar asosida taraqqiy etuvchi organik va anorganik moddalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, tabiatshunoslik fanlari o‘rganadigan va tadqiq qiladigan obyektdir.

Tabiatning ajralmas qismi bo‘lgan Yer organik moddalar, tirik mavjudotlar olamga kelmasdan avval kosmik jismlarning murakkab harakatlari natijasida paydo bo‘lgan. Tirik tabiat anorganik tabiatning milliard yillar davomida taraqqiy etishi natijasida Yer, Quyosh va boshqa planetalar o‘rtasidagi uzlusiz modda almashuvining mahsuli sifatida muayyan shart - sharoitda paydo bo‘lgan.

Hozirgi zamon ilmiy tasavvurlarga ko‘ra Yerdagi hayot belgilari 3, 8 mlrd. yil avval vujudga kelgan. Taxminan 2 mlrd. yil avval fotosintezga layoqatli birinchi hujayra paydo bo‘ldi. Dunyoda qotib qolgan, o‘zgarmaydigan, rivojlanmaydigan hech bir narsa

yo‘q. Masalan, Yer va Quyosh atrofidagi boshqa planetalar tabiatshunos olim O.Y.Shmidt gipotezasiga binoan juda ham uzoq rivojlanish jarayoida jismlar to‘planishidan kelib chiqqandir. Radioaktivlik natijasida Yerda turli o‘zgarishlar yuz berib turishi, uzoq rivojlanish jarayonida tabiatda kimyoviy o‘zgarishlar natijasida organik qo‘silmalar (jismlar) paydo bo‘lgan. Organik jismlar, oqsil moddalar, nuklein kislotalar vujudga kelgan. Vaqt o‘tishi bilan tabiiy holatda hosil bo‘lgan organik moddalar o‘zgarib, murakkab oqsil molekulalarning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lgan. Yuqori molekulyar moddalarning asta - sekin evolyutsion rivojlanishi modda almashuv qobiliyatiga ega bo‘lgan tirik oqsillarning tarkib topishini ta’minlagan. O‘z navbatida bu hayotning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Tabiatdagi hamma narsa va hodisalarning o‘zgarib, takomillashib, rivojlanib turishi odamning kelib chiqishiga ham sababchi bo‘lgan.

Tabiat - tabiiy resurslar manbaidir. Tabiiy resurslar - yonilg‘i, havo, suv, har xil xom-ashyolar bo‘lmasa, inson, jamiyat yashay olmaydi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va madaniyatni yuksaltirib bo‘lmaydi.

Insonning tabiatga bo‘lgan munosabati natijasida tabiat butunlay o‘zgarib ketdi. Ayniqsa, keyingi ming yillikda inson faoliyati natijasida er shari yuzasi, iqlimi, o‘simligi, hayvonot dunyosi tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketganligi bunga misol bo‘la oladi. Ochiq aytish kerakki, insonning istiqbolni o‘ylamay qilgan xatti-harakatlari, ko‘r-ko‘rona qilmishlari tufayli tabiat behad ozor chekdi, ko‘p narsalardan abadiy judo bo‘ldi. Har xil kosmik changlar, atomlar, elektr stansiyalari, avtomobillar sonining tez o‘sib borishi, radio aktiv moddalar va boshqalar ta’sirida havo toqat qilib bo‘lmaydigan darajada ifloslanmoqda. Atrof muhitning radioaktiv va kimyoviy chiqindilar bilan bulg‘anishi aholining chorva mollari, parandalar, daryo va ko‘llardagi, suv omborlaridagi va okeanlardagi baliq va boshqa jonivorlarning ko‘plab zaharlanishiga sabab bo‘lmoqda. Regional, milliy va jahon miqyoslarida suv sistemalari, o‘rmonlar, tuproq qatlami tanazzulga yuz tutayotganligi qayd qilinmoqda. So‘nggi 500 yil mobaynida insoniyat tomonidan Yer yuzidagi o‘rmonlarning 2/3 qismi yo‘q qilindi. Har yili jahon okeaniga 10 million tonnagacha miqdorda neft va neft mahsulotlari kelib tushadi. Xo‘jalik faoliyatida atmosferani, tuproq

va havzalarni zaharlovchi chiqindilar ikki baravar oshib ketdi.

Inson o‘zining ko‘p asrlik xo‘jalik faoliyatida 72 hayvon turini butunlay yo‘q qilib yubordi. Birgina O‘zbekistonda ham Turon yo‘lbarsi, yo‘l-yo‘l sirtlon kabi hayvonlar yo‘q bo‘lib ketdi. Oqquyruq, Qoraquloq, Ustyurt qo‘ylari, Buxoro bug‘usi, oqtirnoqli qo‘ng‘ir ayiq kabilar esa yo‘q bo‘lish arafasida turibdi.

XX asr o‘rtalarigacha, hatto 90 yillargacha ham inson tabiatga hokim, uni istagancha o‘zgartirishi, irodasiga bo‘ysundirishi mumkin, degan noto‘g‘ri fikr ustunlik qilib keldi. O‘scha sharoitlarda bu fikr dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida, jumladan, o‘zimizda ham qo‘llab-quvvatlandi. Natijada qancha-qancha loyihamar vujudga keldi. Daryo va ko‘llardagi baliq va parandalar, hayvonlar ehtiyojidan ortiqcha ovlandi va ko‘pchiligi yo‘q bo‘lib ketdi. Qachonlardir Amudaryoning o‘zidagina 140dan ortiq baliq turi bo‘lganiga endi ishonish qiyin. O‘rmonlarga nisbatan ham ko‘r-ko‘rona munosabatda bo‘lish tufayli Yer sharida 100 yil avval 7200 million hektar o‘rmondan hozir 4100 million hektari qoldi. Shu sababli ham tabiatni muhofaza qilish bugungi kunda insoniyat oldida turgan dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Mintaqamizdagi ekologik vaziyat ham ancha murakkabdir. Ayniqsa, paxtani parvarish qilish uchun ko‘p miqdorda va bir necha yillar mobaynida ishlatilgan zaharli kimyoviy moddalar tufayli er, suv, havo zaharlanishi, Orol muammosi, Semipalatinsk poligonidagi yadroviy qurollarni portlatish natijasida necha ming kilometr atrofdagi vaziyat yomonlashmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida” asarida ta’kidlaganidek “Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, sivilizatsianing hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir”.

Prezidentimiz shu munosabat bilan respublikamizda vujudga kelgan havfli vaziyatning quyidagi ko‘rinishini ko‘rsatib o‘tadi: arning cheklanganligi va uning sifat tarkibining pastlashib borishi; er osti va usti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanishi; Orol dengizi muammosi; havo bo‘shilg‘ining ifloslanishi. Ayni vaqtida

ekologik havfsizlikni kuchaytirishning 6 ta yo‘nalishini ta’kidlaydi. Bular quyidagilardir: tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish; qayta tiklanadigan zahiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta’minalash, tabiiy zahiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish; katta-katta xududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zahiralardan kompleks foydalanish uchun ilmiy asoslangan holda o‘zgartirish; jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko‘paytirish hisobiga baza sifatida saqlab qolish; aholi punktlarida yashash uchun qulay sharoit yaratish; jahon jamoatchiligi E’tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish.

Endi inson tabiatdan foydalanibgina qolmasdan, uni saqlash va himoya qilishni ham o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yishi kerak. Tabiatni eozozlashda va saqlashda hech qanday xududiy to‘silalar bo‘lishi mumkin emas, chunki bir mamlakatda ro‘y berayotgan ekologik inqiroz boshqa joylarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Tabiat muqaddas bir dargoh, inson ko‘z ochib ko‘rgan dunyo bamisolli ona quchog‘i, inson uchun beshikdir. Biz yashab nafas olib, kun kechirib, tirikchilik o‘tkazib turgan tabiat, uning tarkibiy kismi bulmish Yerimiz - hammaning, butun insoniyatning umumiy uyi, umumiy makonidir. Shunday ekan, uni ko‘z qorachig‘idek saqlash atrof-muhitning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik umumdavlat, umumiy insoniyat ishidir. Ekologik inqiroz ishlab chiqarish inqirozi bo‘libgina qolmay, ayni vaqtida ijtimoiy-siyosiy muammo hamdir. Chunki tabiatni muhofaza qilish - bu rivojlanish va xalq farovonligini oshirishning zaminidir. Shuning uchun ham respublikamizda tabiatni muhofaza qilishni davlat yo‘li bilan boshqarish va nazorat qilib turishga katta ahamiyat berilayotganligi bejiz emas. Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasining, Orolni saqlash, EKOSAN va boshqa jamg‘armalarning taosis etilishi, tabiatdan unumli foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish muommolariga oid mintaqaviy, jahon ilmiy-amaliy anjumanlarining o‘tkazilishi, tabiatni muhofaza qilish ishlariga jamoatchilikni jalg qilinishi ham bejiz emas.

Xulosa qilib aytganda, endilikda Yerda hayotning saqlanib qolishi insonlarning o‘z qo‘lidadir. Yerda hayotning saqlab qolishning birinchi navbatdagi sharti yadroviy urushning oldini olishdir. Tiriklikni barham etuvchi boshqa manbalari ham mavjud bo‘lib,

ular insonlarning turli faoliyatları bilan bog‘liqdir. Odamlar bularni tushunib etsalar, ularning oldini olsalar, o‘z faoliyatilarini hayotni barham etuvchi manbalarga qarshi qaratsalar Yer yuzida hayotni saqlab qolish mumkin. Bizga ma’lumki, tabiatni falsafiy tahlil qilish qadimdan boshlab hozirgacha faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Qadimgi yunon falsafasida ham, o‘rta asr Sharq falsafasida ham, yangi davr G‘arb falsafasida ham tabiatni falsafiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Falsafaning bu sohasi tabiat falsafasi yoki naturfilosofiya deb atalgan.

Tabiat tushunchasi juda keng ko‘lamda ishlatiladi. Tabiat mavjud narsalarni - yulduzlar, galaktika va metagalaktika sistemalari, makon va zamondagi eng kichik zarrachalardan tortib o‘simpliklar, insonlar olami - hamma-hammasini o‘z ichiga qamrab oladi. Biroq tabiat tushunchasining torroq ma’nosи ham bor. Bu inson va insoniyat yashashining tabiiy sharoitlari majmuidir. Bu tabiiy muhit yoki geografik muhit deb ham yuritiladi.

Odatda tabiat o‘ziga xos qonuniyatlar asosida taraqqiy etuvchi organik va anorganik moddalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, tabiatshunoslik fanlari o‘rganadigan va tadqiq qiladigan obyektdir.

Inson o‘zining ko‘p asrlik xo‘jalik faoliyatida 72 hayvon turini butunlay yo‘q qilib yubordi. Birgina O‘zbekistonda ham Turon yo‘lbarsi, yo‘l-yo‘l sirtlon kabi hayvonlar yo‘q bo‘lib ketdi. Oqquyruq, Qoraquloq, Ustyurt qo‘ylari, Buxoro bug‘usi, oqtirnoqli qo‘ng‘ir ayiq kabilar esa yo‘q bo‘lish arafasida turibdi.

XX asr o‘rtalarigacha, hatto 90 yillargacha ham inson tabiatga hokim, uni istagancha o‘zgartirishi, irodasiga bo‘ysundirishi mumkin, degan noto‘g‘ri fikr ustunlik qilib keldi. O‘sha sharoitlarda bu fikr dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida, jumladan, o‘zimizda ham qo‘llab-quvvatlandi. Natijada qancha-qancha loyihibar vujudga keldi. Daryo va ko‘llardagi baliq va parandalar, hayvonlar ehtiyojidan ortiqcha ovlandi va ko‘pchiligi yo‘q bo‘lib ketdi. Qachonlardir Amudaryoning o‘zidagina 140dan ortiq baliq turi bo‘lganiga endi ishonish qiyin. O‘rmonlarga nisbatan ham ko‘r-ko‘rona munosabatda bo‘lish tufayli er sharida 100 yil avval 7200 million hektar o‘rmonidan hozir 4100 million hektari qoldi. Shu sababli ham tabiatni muhofaza qilish bugungi kunda insoniyat oldida

turgan dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi planeta miqyosida tabiat jarayonlaridan oqilona foydalanish insoniyat uchun hayotiy zaruratga aylanmoqdaki, faqat shu narsagina insonni arning chinakam sohibi qila oladi. Bu zarurat tabiat bilan jamiyatning ongli inson faoliyati vositasida tashkil qilingan, o‘zaro ta’sirning sohasi bo‘lgan, tabiat fani tomonidan ishlab chiqilgan noosfera tushunchasida ham o‘z ifodasini topgan. I. V. Vernadskiyning tasavvuricha, XX asr biosferasi avvalo fanning o‘sishi, ilmiy tushuncha va insonning unga asoslangan ijtimoiy mehnati tufayli vujudga keladigan noosferani yaratish barcha mamlakatlar va qitoalar miqyosida tabiat kuchlaridan rejali foydalanishni ko‘zda tutadi.

Mintaqamizdagi ekologik vaziyat ham ancha murakkabdir. Ayniqsa, paxtani parvarish qilish uchun ko‘p miqdorda va bir necha yillar mobaynida ishlatilgan zaharli kimyoviy moddalar tufayli er, suv, havo zaharlanishi, Orol muammosi, Semipalatinsk poligonidagi yadroviy qurollarni portlatish natijasida necha ming kilometr atrofdagi vaziyat yomonlashmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida” asarida ta’kidlaganidek “Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariiga mos bo‘lib, sivilizatsianing hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir”.

Prezidentimiz shu munosabat bilan respublikamizda vujudga kelgan havfli vaziyatning quyidagi ko‘rinishini ko‘rsatib o‘tadi: arning cheklanganligi va uning sifat tarkibining pastlashib borishi; er osti va usti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanishi; Orol dengizi muammosi; havo bo‘shlig‘ining ifloslanishi. Ayni vaqtda ekologik havfsizlikni kuchaytirishning 6 ta yo‘nalishini ta’kidlaydi. Bular quyidagilardir: tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish; qayta tiklanadigan zahiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta’minlash, tabiiy zahiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish; katta-katta xududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zahiralardan kompleks foydalanish uchun ilmiy asoslangan holda o‘zgartirish; jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini

ko‘paytirish hisobiga baza sifatida saqlab qolish; aholi punktlarida yashash uchun qulay sharoit yaratish; jahon jamoatchiligi e’tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish.

Endi inson tabiatdan foydalanibgina qolmasdan, uni saqlash va himoya qilishni ham o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yishi kerak. Tabiatni eozozlashda va saqlashda hech qanday xududiy to‘sıqlar bo‘lishi mumkin emas, chunki bir mamlakatda ro‘y berayotgan ekologik inqiroz boshqa joylarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Tabiat muqaddas bir dargoh, inson ko‘z ochib ko‘rgan dunyo bamisolı ona quchog‘i, inson uchun beshikdir. Biz yashab nafas olib, kun kechirib, tirikchilik o‘tkazib turgan tabiat, uning tarkibiy kismi bulmish Yerimiz - hammaning, butun insoniyatning umumiy uyi, umumiy makonidir. Shunday ekan, uni ko‘z qorachig‘idek saqlash atrof-muhitning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik umum davlat, umumiy insoniyat ishidir.

Ekologik inqiroz ishlab chiqarish inqirozi bo‘libgina qolmay, ayni vaqtida ijtimoiy-siyosiy muammo hamdir. Chunki tabiatni muhofaza qilish - bu rivojlanish va xalq farovonligini oshirishning zaminidir. Shuning uchun ham respublikamizda tabiatni muhofaza qilishni davlat yo‘li bilan boshqarish va nazorat qilib turishga katta ahamiyat berilayotganligi bejiz emas. Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasining, Orolni saqlash, EKOSAN va boshqa jamg‘armalarning taosis etilishi, tabiatdan unumli foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish muommolariga oid mintaqaviy, jahon ilmiy-amaliy anjumanlarining o‘tkazilishi, tabiatni muhofaza qilish ishlariga jamoatchilikni jalb qilinishi ham bejiz emas.

Xulosa qilib aytganda, endilikda Yerda hayotning saqlanib qolishi insonlarning o‘z qo‘lidadir. Yerda hayotning saqlab qolishning birinchi navbatdagi sharti yadroviy urushning oldini olishdir. Tiriklikni barham etuvchi boshqa manbalari ham mayjud bo‘lib, ular insonlarning turli faoliyatları bilan bog‘liqdir. Odamlar bularni tushinib etsalar, ularning oldini olsalar, o‘z faoliyatilarini hayotni barham etuvchi manbalarga qarshi qaratsalar Yer yuzida hayotni saqlab qolish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yhati

14. Abdulla Sher. Axlokshunoslik. Darslik. -T.: UFMJ, 2010.
15. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. - T.:Uzbekiston, 2016.
16. Osnovi filosofii. Uchebnik. Izdaniye 2-ye, pererabotannoye, dopoln. /Pod red.M.A.Axmedovoy, V.S.Xana. - T.: Mexnat. 2004.
17. Pulatova D. , Izzetova E. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-b
18. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
19. Xusanov B. Gulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: Iktisod- moliya, 2010.
20. Sharipov M. Fayzixujayeva D. Mantik. -T.: Unversitet, 2007.
21. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
22. Plutarx. Saylanma. Z.A’lam va Urfon Otajon tarjimasi. - T.: Yangi asr avlod, 2006.
23. Pulatova D., Kodirov M., Axmedova M. va boshk. Falsafa tarixi: Shark falsafasi. Ukuv kullanma. -T.: TDSHI.2013.
24. Pulatova D.,Ruzmatova G., Jalolova U.Axlokshunoslik. Ukuv kullanma. - T.: TDSHI.2013.
25. Pulatova D.A.,Fayzixujayeva D.E. Mantik.Ukuv kullanma.T.:TDSHI., 2013.
26. Soifnazarov I. Kurs leksiy po filosofii. - T.: TDIU, 2004.
27. Tulenov J.,Tulenova G.,Tulenova K.Falsafa.Darslik.-T.:Fan va texnologiya, 2016.

3-MAVZU: BORLIQ FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI (2 SOAT)

Reja:

1. Ontologiya tushunchasi. Borliqning umumontologik talqinlari. “Materiya” tushunchasi va uning tarixiy talqinlari. Materiyaning zamonaviy talqinlari. Materiyaning tizimli tuzilishi.
2. Borliq tushunchasi. Borliqning turlari masalasi. Borliqqa mavjudliksifatida yondashish. “Postmodern” borlig‘i. Borliqning asosiy shakllari to‘g‘risidagi masala. Tabiatobyektlarining tuzilishi. Hayot nima? Biosfera. “Inson borlig‘i”. “Ijtimoiy borliq” muammosi. XX asr o‘zbek falsafasining asoschilari.
3. Noosfera – borliq shakli. “Noosfera” atamasi. “Noosfera” tushunchasi. Noosfera g‘oyasi. Ontologiyada olamning birligi masalasi. Olamning bir butunligi. Olamning birligi asoslari. Jamiatning yangi taraqqiyoti bosqichida milliy falsafa matabining strategiyasi.

Mavzuning tayanch iboralari: Ong, til, ongning tuzilishi, o‘z-o‘zini anglash, ”informatsion portlash”; onglilik, ma’naviyat, in’ikos, ta’sirlanish, sezish, informatsiya, obraz, ijodiyot, qobiliyat, daholik, ijtimoiy ong, individual ong, mafkura.

Ong muammosi bilan fiziologiya, kibernetika, informatika, psixologiya, tilshunoslik, pedagogika, sotsiologiya kabi ko‘pgina fanlar shug‘ullanadi. Ong falsafaning azaliy masalasi hisoblanadi. Ma’lumki, inson doimo ma’naviy-ruhiy tasalliga muxtoj bo‘lib yashaydi. Ong esa bevosita ma’naviyat bilan bog‘liq. Ong ma’naviyatning tarkibiy qismi. Ong insonning o‘z o‘zini anglash, o‘z xatti-harakatlarini boshqarish orqali ma’naviyatga ijobiy yoki salbiy ta’sir o‘tkazib turadi.

Ong eng avvalo insonni o‘z-o‘zini anglashi, tevarak atrofdan o‘zini ajratish qobiliyati demakdir. Ma’naviyat ham insonni o‘z-o‘zini anglashidir. U holda ong bilan

ma'naviyatning farqi nimada?

Ong anglash, voqelikni bilishdir. Ma'naviyat shu bilim, ong asosida olamga munosabat bildirish, baho berish va shu asosda amaliy faoliyat ko'rsatishdir. Ma'naviyat odamlarning odamlarga bo'lgan ongli munosabatida, tilida, dilida, harakatida namoyon bo'ladi. Kishilar qancha ongli bo'lsa, ma'naviyati shuncha yuksak bo'ladi.

Ong nima? Ong keng ma'noda insoning o'z-o'zini, borliqni anglashi, voqelikni adekvat in'ikos etishi, bilimi va shu asosda tabiat, jamiyat va kishilarga bo'lgan ruhiy-ma'naviy munosabatidir.

Ongning kelib chiqishi va mohiyatini tushunishda uch omilga e'tibor berish odat bo'lgan. Birinchidan, ong inson miyasining tashqi olamni aks ettirish layoqatidir. Sog'lom miyagina shu vazifani bajara oladi. Meditsina, fiziologiya fanlari bu xulosaning to'g'rilibini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, ong - voqelikning in'ikosidir, lekin oddiy emas, in'ikosning oliy shaklidir. In'ikosning istagan bir shakli ong bo'la olmaydi. In'ikosning eng oliy shakligina ong bo'la oladi. Uchinchidan, ong jamiyat taraqqiyotining mahsuli. Inson biologik mohiyat sifatida tabiat bag'rida dunyoga kelgan bo'lsa, ijtimoiy mohiyat sifatida jamiyat bag'rida shakllangan va rivojlangan. Uning ongi ham tarixiy taraqqiyotning mahsulidir.

Odam bolasi sog'lom miyaga ega bo'lsa ham, bari bir u insoniy muhitdan ajralib qolsa, uning ongi rivojlanmaydi. Fan tarixida bunday misollar ko'plab uchraydi. Aytishlaricha, Hindiston shohi Akbar qiziq bir tajriba o'tkazadi. Uning topshirig'iga binoan turli millat bolalarini boshqa odamlarga ko'rsatmay, faqat soqov enagalar tarbiyalaydi. Natija nima bilan tugashi sizga ayon. Yana boshqa bir misol, tropik mamlakatlarda tasodifan hayvonlar ichiga tushib qolgan mauglilar qismatini yodga oling. Hindistonlik professor Sinh Amola va Kamola ismli qizaloqlarni bo'rilar galasi ichidan topib oladi. Albatta, ijtimoiy muhitdan ajrab qolgan bu bolalarning ongi, tili, tasavvurlari, qolaversa ularning hayoti insoniy mazmun va mohiyatdan mahrumdir. Ularning ongi rivojlandimi? Tili-chi? Nima uchun ular uzoq yashay olmaydilar?

Demak, yuqorida qayd etganimiz uch omilni hisobga olsak, ong yuksak darajada tashkil topgan materiya-miyaning xususiyati, voqelik in'ikosining oliy shakli va kishilik

tarixiy taraqqiyotining mahsulidir ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Shunday qilib ong inson miyasining layoqati, Obyektiv olamning Subyektiv obrazi, vogelikning umumlashgan va maqsadga muvofiq in’ikosi, tarixiy taraqqiyot mahsuli, inson xulqatrori va harakatini oqilona boshqarib va nazorat qilib turadigan hissiy va aqliy faoliyat birligidir.

Ong istak va mayllar, ta’sirot va hissiyotlar, ruhiy kechinmalar, o‘y va xayollar, shuningdek g‘oyalar, e’tiqodlar, qadriyat va qo’llanmalar sifatida mavjuddir. Ong o‘zining strukturasiga ega bo‘lgan yaxlit tizim. Uning tarkibiga quyidagi elementlar kiradi: sezgi, idrok, tasavvur, emotsiyalar, o‘z-o‘zini his etish, kayfiyatlar, tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa, g‘oyalar, iroda, xotira, diqqat, kechinmalar. Bularning ichida sezgi, iroda, tasavvur, tafakkur, tushuncha ongning yadrosini tashkil etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan qarasak, ong, ongli degan tushunchalarning teskarisi ongsizlikdir. Ongsizlik nima? Ma’lumki, inson faoliyatining bir tomonida onglilik, ikkinchi tomonida ongsizlik yotadi.

Mutaxassislar fikricha, ongsizlik nomigagina mavjud emas, balki individ ruhiy faoliyatining muhim tomonidir. Ongsizlikning bir qancha darajalari bor. Birinchi darajasi - inson o‘z jismining ehtiyojlari ustidan o‘rnatilgan, ammo anglab etilmagan ruhiy nazorat. Bu nazorat avtomatik, ya’ni ongsiz ravishda amalga oshadi, ba’zi istaklar, mayllar, tush ko‘rishlar, ruhiy holatlar ana shunday xususiyatga egadir.

Ongsizlikning ikkinchi darajasi ong bilan birga yonma-yon sodir bo‘ladi ("fikr pishdi", «men shunday deb o‘ylayman» yoki fikr tug‘iladiyu, keyinroq anglab olinadi). Uning uchinchi darajasi badiiy, ilmiy, falsafiy kabi holatlarni ifodalab, murakkabroq (intuitsiya) tarzda namoyon bo‘ladi.

Inson faoliyatida ongsizlik amal qilishining sababi uning tomonidan o‘z faoliyatini avvaldan o‘ylanmagan, nazarda tutilmagan maqsad sari yo‘naltirilmaganligidir. Vaholanki, ongli faoliyatda avvalamborishning natijasi o‘ylab olingan bo‘ladi. Ammo amaldagi natija boshqacha chiqishi ham mumkin. Inson faoliyatida onglilik ustun turadi, aks holda uning insoniy mohiyati o‘z mazmunini yo‘qotadi. Ong haqida gap borganda, falsafa uning mohiyatini asoslashni maqsad qilib oladi.

Ongning mohiyati nima? Yuqorida aytilganidek, ongning mohiyati uning vogelik in'ikosi ekanligidir. Ong borliqning o'zi emas, balki uning miyadagi nusxasi, obrazi. Boshqacha aytganda, ongning mohiyati uning ma'naviy hodisasi ekanligidadir. Bu erda moddiylik va ma'naviylik hodisalari to'g'risidagi masalani qisqacha ko'rib chiqish taqozo qilinadi. Avvalam bor moddiylik va ma'naviylikning nisbati shundayki, ular o'zaro bog'langan va dialektik aloqadorlikda mavjud bo'ladi.

Hayotning paydo bo'lishi va uning rivojlanishi bilan organizmlar ham rivoj topadi. Biologik evolyutsiya jarayonida organizmlarning tuzilishi asab tizimlarining murakkablashib borishiga muvofiq holda tirik mavjudodga xos in'ikos shakllari vujudga keladi.

Tirik materiyaga xos bo'lган in'ikos shakllariga quyidagilar kiradi: a) ta'sirchanlik yoki qo'zg'alish; b) sezgirlik, sezish yoki psixik in'ikos. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidagi in'ikos shakllari esa quyidagicha: a)ividning ongli in'ikosi - sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur va ong ;b) ijtimoiy ongning fan, san'at va hokazo ko'rinishidagi in'ikos; v) texnikadagi in'ikos, bu sistemalarni boshqarish bilan bog'liq in'ikos;

In'ikosning birorta quyi shakli ong tushunchasini bildirmaydi, agar shunday tartibda fikr yuritsa, gilozoizmnинг xatolarini takrorlashga olib keladi. In'ikosning eng yuqori cho'qqisida turgan shakli borki, biz uni ong deb aytamiz. Shuning uchun ong borliq in'ikosining oliy shaklidir.

Borlijni in'ikos etishda miyaning roli katta. In'ikos miyaga yuborilgan informatsiya tufayli hosil bo'ladi. Informatsiya borliq haqidagi ma'lumot sifatida miyada qayta ishlanadi, turli obraz, nusxa va belgilar sifatida olamni bilishga yordam beradi.

Informatsiya moddiy olam, undagi predmetlar, hodisalar va ularning in'ikosi bo'lган ongimiz to'g'risidagi turli-tuman ma'lumot yoki axborotdan iborat. Informatsiya - moddiy yoki ma'naviy bo'lishi mumkin. Materianing mexanik, fizik, ximik harakati shakllariga bog'liq informatsiyalar moddiy informatsiyalardir.

Bilish obyektining kishi ongidagi in'ikosi natijalari obraz tushunchasi bilan bog'langandir. Obraz aks etiluvchi obyektga nisbatan ikkilamchidir. Obraz belgilarda o'z ifodasini topadi. Belgi boshqa predmet, voqeа yoki ta'sirdan iborat bo'lib, informatsiya

olish va berish, saqlash, o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Belgi obrazdan torroq tushuncha bo‘lib, obrazning xususiy ko‘rinishidir. Ongning o‘ziga xos bo‘lgan muhim xusiyati uning faolligidir. Ongning faolligi inson tomonidan obyektiv qonuniyatlarni anglab, bilib olish va o‘z manfaati yo‘lida ulardan ijodiy foydalanishni nazarda tutadi.

Ongning ijodiy faolligi inson va jamiyat hayotining hamma sohalarida ko‘rinadi. Inson o‘zini tabiatdan ajrata boshlagan chog‘idayoq ongning bu xususiyati namoyon bo‘lgan edi. Ong faolligining yuqori bosqichi insonning o‘z-o‘zini anglashidan boshlangan Inson o‘z aqli bilan tabiatda yo‘q narsalarni yaratadi. Inson ongi obyektiv olamni faqat aks ettiribgina qolmasdan, uni ijod ham qiladi. Dunyo insonni qanoatlantirmaydi, binobarin, inson o‘z harakati bilan o‘z extiyojlarini qondiradigan ikkilamchi buyumlarini yaratadi. Shu bilan birga o‘zini ham o‘zgartiradi. Ijodiyot ong, borliq hamkorligida yuzaga chiqadi.

Ongning faolligi haqidagi masala insonning ijodiyoti bilan uzviy bog‘langandir. Qadimgi yunon faylasufi Aflatun ijodiyot xudoning insonga bergen qobiliyati degan edi. Ijodiyot, I. Kant fikricha, buyuk isteodod egalariga xos qobiliyatdir. Zigmund Freyd ijodiyotni ongsizlik sohasiga xos faoliyat, ijodiyot aqliy bilish bilan sig‘ishmaydi, degan g‘oyani olg‘a suradi.

Ijodiyot eng avvalo inson tomonidan yangi narsani ixtiro qilishdir. Uni yaratishda ongsizlik, ong, aql hamkorlik qiladi.

Inson yangi bilimlarni egalash, biror muammoni hal qila olish, yangi muammolarni ta’riflash, noma’lum narsalarni bilish, biror bir faoliyatning yangi usullarini izlab topish qobiliyatiga ega. Uning kundalik hayotidagi qandaydir ixtirosi jamiyat uchun yangilik bo‘lmasa-da, har holda ijodiyot bilan bog‘liqdir. Madaniyat, san’at, adabiyot, fanda tor ma’nodagi ijodiyot o‘z natijalari bilan yangi narsaning yaratilishidir. O‘zbekistonda yangi fuqarolik jamiyat, huquqiy davlat, o‘zbekona bozor iqtisodi nazariyasи va amaliyotining yaratilishi, bu sohadagi muvaffaqiyatlar ijodiyotning yorqin namoyishidir. Ijodiyotni amalga oshirishda intuitsiya (muroqaba, bevosita karomat)ning roli katta.

Inson ijodiy faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy sog‘lom shart-sharoitlarga bog‘liq. Shuni e’tiborga olib O‘zbekiston hukumati insonning ijodiy

imkoniyatlarini to‘liq namoyon bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib berish haqida alohida g‘amxo‘rlik qilmoqda. Qobiliyatli, ilmga chanqoq yoshlarni tanlab chet ellarga yuborib o‘qitishni tashkil etilayotganligi ham ijodiyotga keng yo‘l demakdir. Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun “Umid” jamg‘armasining tashkil etilishi, oliv o‘quv yurtlarida bosqichli tanlov konkurslarining o‘tkazilib turilishi, talantlarni aniqlash, ularga amaliy yordam berilayotganligi ham shunga qaratilgan.

Ijodning irsiy, ruhiy va ijtimoiy jihatlari bor, albatta. Ijodiyotning irsiy jihatlari to‘g‘risida gapirganda hozirgi zamon genetikasi irsiyat bilan bog‘liq bo‘lgan tug‘ma xususiyatlarni ochish, ularni ma’lum maqsadga yo‘naltirishning aniq yo‘llarini izlash sohasida sezilarli natijalarga erishish oldida. Ijodiyotning ruhiy-psixologik jihatlari mazkur jamiyatdagi ijod erkinligi, tafakkur erkinligi, fikr xilma-xilligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga ijodiyotni muayyan mafkuraga zo‘rlik bilan bo‘ysundirish mumkin emas, buning zararli oqibatlari va ularning natijalari yaqin o‘tmishdan ma’lum. Ijodiy jarayon bosqichlari qobiliyat, talant isteodod, daho, geniy tushunchalari bilan bog‘langandir. Chunonchi, qobiliyat shaxsning xatti-harakatini tartibga soladigan ruhiy psixik xususiyatlar yig‘indisidir.

Inson qobiliyati tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Qobiliyat insoniyat erishgan taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Yaratuvchilik qobiliyati insonning eng qudratli quroli bo‘lib, shu asosda inson ijodiyot olamiga kiradi. Qobiliyat talant tushunchasiga yaqin turadi, ammo ular o‘rtsida muayyan farq ham bor. Talant yunoncha so‘z bo‘lib, buyuk tug‘ma sifat, alohida tabiiy qobiliyat, layoqat degani. Iste’dod esa qobiliyat, talant va layoqatning yuqori bosqichi. Ijodiyotning eng yuksak cho‘qqisi geniylik-daholik bo‘lib kamdan kam odamga nasib etadi.

Ongning eng muhim xususiyati uning ijtimoiy mazmuni bilan belgilanishi yuqorida aytib o‘tildi. Uning bu fazilati ayniqsa ijtimoiy ong tushunchasida to‘laroq namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy ong deb ijtimoiy borliqni aks ettiradigan ijtimoiy qarashlar, kayfiyatlar, his-tuyg‘ular, g‘oyalar yig‘indisiga aytiladi. Ijtimoiy ong individual ongning mexanik yig‘indisi emas. Ijtimoiy ong individ ongidan o‘zining umumiyligi, butun jamiyatga

tegishli ekanligi bilan farq qiladi. Ijtimoiy ongning o‘ziga xos xususiyati uning ijtimoiy borliqqa nisbatan nisbiy mustaqilligida namoyon bo‘ladi. Buning ma’nosi shuki, u birinchidan, ijtimoiy borliqdan orqada qolishi yoki tezlab ketishi mumkin. Ijtimoiy borliq tez, ijtimoiy ongning ayrim shakllari esa sekin o‘zgaradi. Masalan, axloq, din kabi ijtimoiy ong shakllari o‘ta yashovchan bo‘ladi. Diniy va axloqiy qarashlar kishilarning ma’naviy mulki bo‘lib qolganligi tufayli ularni keltirib chiqargan sharoit yo‘q bo‘lib ketsa ham, ular anoanaga, odatga aylanib uzoq davrlar saqlanib qoladi. Shuningdek ijtimoiy ongning ayrim shakllari (masalan, badiiy adabiyot, fan nazariyalari) mavjud ijtimoiy borliqdan oldinlab ketishi ham sir emas. Ilg‘or mutafakkirlar jamiyat taraqqiyotining umumiyligini qonunlarini analiz qilish asosida kelajakda bo‘ladigan hodisalarini oldindan aytib beradigan nazariyalar yaratishlari mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy ong o‘zrivojlanishida vorislik tamoyillariga suyanadi. Yangi ijtimoiy g‘oyalar o‘tmish merosga asoslanib rivojlanadi. Ijtimoiy borliqda o‘zgarish bo‘lsa ham odamlar o‘tmishda yaratilgan ma’naviy boyliklardan, axloq, fan adabiyot, sanoat, falsafa va boshqa ijtimoiy ong shakllaridan keng foydalanadi. Bunday vorisliksiz ma’naviyat, ijtimoiy ong shakllari rivojlna olmaydi.

Uchinchidan, ijtimoiy ong shakllarining jamiyat taraqqiyotidagi faol o‘rni ular (g‘oyalar, nazariyalar)ning inson turmushini yaxshilanishidagi ahamiyati bilan tasdiqlanadi. Ilg‘or g‘oyalar kishilarni birlashtiradi, muayyan vazifalarni bajarishga daovat etadi. Yetilgan muammolarni hal qilishga yordam beradi. Eskirgan qoloq g‘oya va qarashlar jamiyat taraqqiyotiga to‘sqlik qiladi. Binobarin, «toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg‘or g‘oyalar tug‘ilaveradi» (Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. 2000, 11-bet)

Ijtimoiy ong haqida so‘z yuritilganda kundalik ong, nazariy ong tushunchalarini ham tavsiflash zarur. Kundalik ong kishilar amaliy faoliyatining tashqi, nazariy ong uning ichki, muhim tomonlarini aks etiradi. Amaliy kundalik va nazariy ong bir-biri bilan uzviy bog‘langan, ammo ular bir-birining o‘rnini bosa olmaydi. Kundalik ongga qarab ijtimoiy hodisalar haqida bahh berish mumkin. Ammo uning xulosalari noto‘g‘ri bo‘lishi ham ehtimoldan yiroq emas. Ijtimoiy ongning yana bir darjasи ijtimoiy psixologiyadir.

Ijtimoiy psixologiya deb kishilarning kundalik hayot sharoitlari ta'siri ostida tug'iladigan tuyg'ular, kayfiyatlar, kechinmalar, odatlar, xayollar va fikrlar yig'indisiga aytiladi. Ijtimoiy psixologiya o'zining jo'shqinligi, his-hayajonga to'laligi, ta'sirchanligi bilan kishilarni o'z ortidan ergashtiradi, turli harakatlarga rag'barlantiradi. Ijtimoiy psixologiyani bilish, ya'ni kishilar kayfiyatini o'rganish ularning muayyan hodisa va siyosiy harakatlarga munosabatini oldindan ko'ra bilishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy psixologiya bilan mafkura bir-biriga ta'sir etib turadi. Mafkura muayyan ijtimoiy gurux yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlaprini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. T. «Yangi asr avlod», 2001, 31-bet) Ijtimoiy psixologiya ijtimoiy qarashlar, g'oyalar va nazariyalarning shakllanishiga kuchli ta'sir qiladi. Mafkura va ijtimoiy psixologiyaning farqi shuki, mafkura ijtimoiy ongning yuqori, ijtimoiy psixologiya esa uning ko'yi darajasidir.

Mafkura nazariy bilish shakli bo'lib, voqelikni bevosita emas, balki bilvosita aks ettiradi. Mafkura o'z tuzilishiga ko'ra siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, falsafiy shakllarni o'z ichiga oladi.

Taraqqiyot mafkurasiz bo'lmaydi. Mafkura jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanishiga ma'lum bir maqsad va yo'nalish beradi. Respublikamizda shakllangan va rivojlanib borayotgan milliy istiqlol mafkurasi o'z oldiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashni bosh maqsad qilib qo'yadi, uning vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamjihatlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'ri kenglik kabi asosiy g'oyalari ana shu umumiyl g'oyadan kelib chiqadi. Prezident I.A.Karimov yozganidek, «mafcura bo'lmasa, har qaysi davlat va, jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi mumkin» (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbekiston», 2000, 5-6 bet) Milliy istiqlol mafkurasi odamlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi, bu uning asosiy vazifasidir. Ayni vaqtida respublikamizda mafkuralar plyurnalizmi ham huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Ijtimoiy ongning xilma-xil shakllari mavjud: axloq, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, falsafiy, ekologik qarashlar, demokratik ong, iqtisodiy ong va boshqalar. Ijtimoiy ong shakllari to‘rtta belgiga qarab bir-biridan farq qiladi. in’ikos **obyekti; shakllari ; rivojlanishning o‘ziga xos tomonlari; ijtimoiy funksiyalari bo‘yicha.**

Bilish va bilim. Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlar, xususiyatlarini o‘rganish falsafa tarixida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Inson o‘z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va, nihoyat, o‘z-o‘zini o‘zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug‘ullanuvchi maxsus sohasi - gnoseologiya vujudga keldi.

Inson bilishi nihoyatda ko‘pqirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Gnoseologiya asosan bilishniig falsafiy muammolarini hal etish bilan shug‘ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish extiyojlaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga yangi vazifalar qo‘yadi. Xusan, XVII asr o‘rtalarida evropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, xaqiqiy ilmiy bilimlar xosil qilishning usullarini o‘rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shug‘llandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g‘oyani olg‘a surdilar.

XVIII asr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli im-koniyatlariga, ratsional bilishning hissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida urg‘u berdilar. Buyuk nemis faylasufi I. Kant bilish natijalarining haqiqiyligi xususida emas, balki insonning bilish qobiliyatları haqida ko‘proq bahs yuritdi. Gnoseologiya oldiga inson olamni bila oladimi, degan masala keskin qo‘yildi. Insonning bilish imkoniyatlariga shubha bilan qaraydigan faylasuflar agnostiklar deb ataldilar.

Bilish nima? Bilish insonning tabiat, jamiyat va o‘zi tug‘risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma’naviy faoliyat turidir. Inson o‘zini qurshab turgan atrof-muhit to‘g‘risida bilim va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo‘lib, har qanday kasb-korni egallah faqat ilm orqali ro‘y beradi. Shuningdek, bilish insongagina xos bo‘lgan ma’naviy extiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilish butun insoniyatga xos bo‘lgan bilish usulidir. Bilimlar bevosita hayotiy ehtiyojdan, farovon hayot kechirish zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyatning ancha keyingi taraqqiyoti davomida ilmiy faoliyat bilan bevosita shug‘ullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sotsial guruh vujudga keldi. Bular - ilm-fan kishilar bo‘lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan shug‘ullanadilar.

Bilishning ikki shakli: **kundalik (empirik) bilish va iazariy (ilmiy) bilish** bir-biridan farqlanadi. Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o‘ziga xos bo‘lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgizamon g‘arb sotsiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish usullarini o‘rganuvchi maxsus soha - etnometodologiya fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Nazariy bilishning obyekti, subyekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.

Bilish obyekti. Tadqiqotchi-olim, faylasuf, sanoatkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish obyektlari hisoblanadi. Bilish obyektlari moddiy, ma’naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo‘lishi mumkin. Bilish obyektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo‘lgan borliqni qamrab oladi. Bilish obyektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

Bilish subyekti. Bilish bilan shug‘ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish subyekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish subyektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o‘ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butun iisoniyat ayni bir vaktda ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida

ma’naviy barkamollikka erisha borgani sari ilm-fan qadriyat sifatida eozozlana boshlanadi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohalariniig hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish subyekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

Bilish predmeti subyektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish obektining ayrim sohalari va tomonlaridir. Fanning o‘rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir. Bilishdarajalarini shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bulib,hissiy bilish dsyiladi. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a’zolari (ko‘rish, eshitish, hid bilish, taom bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo‘lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalanishi uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to‘g‘risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo‘lib, aqliy bilish (ratsional bilish) deyiladi. Agar inson o‘z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham hodisa aldamchi va chalg‘ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron bir narsa yokihodisa to‘g‘risida bergen ma’lumotlari hech qachon uning butun mohiyatini ochib berolmaydi.

Tushuncha. Aqliy bilish yoki tafakkur vositasida bilish hissiy bilishni inkor etmaydi, balki sezgilar vositasida olingan bilimlarni umumlashtirish, tahlil qilish, sintezlash, mavhumlashtirish orqali yangi hosil qilingan bilimlardan tushunchalar yaratiladi.Tushunchada insonning hissiy bilish jarayonida orttirgan barcha bilimlari mujassamlashadi. Tushuncha aqliy faoliyat mahsuli sifatida vujudga keladi. Narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib borishda tushuncha muhim vosita bo‘lib xizmat

qiladi. Aqliy bilish hissiy bilishga nisbatan ancha murakkabvaziddiyatli jarayondir. Aqliy bilishda narsa va hodisalarning tub mohiyatini bilish uchun ulardan fikran uzoqlashish talab etiladi. Masalan, insonning mohiyati uning sezgi aozolarimiz qayd etadigan kelishgan qaddi-qomati, chiroyli qoshu ko‘zi, ijodkor qo‘li, oyoqlari bilan belgilanmaydi. Insonning mohiyati avvalo, uning aql va tafakkurga, yaratish qudratiga, mehr-shafqat hissiga, mehnat qilish, so‘zlash qobiliyatiga ega ekanligida namoyon bo‘ladi.

Inson tushunchasi o‘zida insoniyatning ko‘p asrlar davomida orttirgan bilimlarining mahsuli sifatida shakllandi. Har bir fan o‘ziga xos tushunchalar apparatini yaratadivaular vositasida mohiyatni bilishga intiladi. I. Kantning fikricha, narsalarning mohiyati so‘z va tushunchalarda mujassamlashadi. YA’ni biz so‘z va tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida biron bir bilimga ega bo‘lamiz. Har bir inson dunyoga kelar ekan, tayyor narsalar, munosabatlar bilan bir qatorda tayyor bilimlar olamiga ham kirib boradi.

Hukm. Aqliy bilish narsa va hodisalarga xos bo‘lgan belgi va xususiyatlarni tasdiqlash yoki inkor etishni taqozo etadi. Tafakkurga xos bo‘lgan ana shu tasdiqlash yoki inkor etish qobiliyatiga hukm deyiladi. Hukmlar tushunchalar vositasida shakllanadi.

Hukmlar yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat yaratadi, ular vositasida narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib boriladi. Shunday qilib, hukm narsa va hodisalarning tub mohiyatini ifodalovchi eng muhim belgi va xususiyatlar mavjudligini yo tasdiklaydi yoki inkor etadi. Masalan, «inson aqli mavjudotdir», degan hukmda insonga xos eng asosiy belgi - aqlning mavjudligi tasdiqlanayapti. Biroq inson shunday murakkab mavjudotdirki, uning mohiyati faqat aqli mavjudot ekanligi bilan cheklanmaydi. Chunki qirg‘inbarot urushlar, ekologik inqirozlar aqli mavjudot bo‘lgan inson tomonidan amalga oshirildi. «Inson axloqli mavjudotdir». Inson to‘g‘risidagi hozirgi zamon fanining muhim xulosasi ana shu.

Xulosa - aqliy bilishning muhim vositalaridan biri, yangi bilimlar hosil qilish usulidir. Xulosa chiqarish induktiv va deduktiv bo‘lishi, ya’ni ayrim olingan narsalarni bilishdan umumiylar chiqarishga yoki umumiylidandan alohidilikka borish orqali bo‘lishi ham mumkin. Binobarin, tushuncha, hukm va xulosalar chiqarish ilmiy bilishning muhim vositalari dir. Bunday bilish insondan alohida qobiliyat, kuchli irodani tarbiyalashni, narsa

va hodisalardan fikran uzoqlashishni, diqqatni bir joyga to‘plashni, ijodiy xayolni talab etadi.

Bilishning oliv darajasiintuitiv bilish, qalban bilish, g‘oyibona bilishdir. O‘zining butun borlig‘ini fan, din, siyosat va sanoat sohasiga bag‘ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g‘oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, echimini kutayotgan umumbashariy muammolar bilan bog‘liqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim o‘rin egallab keldi. Har bir fan o‘ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to‘plashning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilish metodlarini o‘rganadigan maxsus soha -metodologiya deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o‘z xarakteriga ko‘ra: 1) eng umumiyl ilmiy metodlar; 2) umumiyl ilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bo‘linadi.

Eng umumiyl ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo‘lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumilmiy metodlar bo‘lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi. Xususiy ilmiy metodlar har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa so‘rovi, hujjatlarni o‘rganish sotsiologiya faniga xos bo‘lgan xususiy ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish metodi boshqa fanda shunday samara bermasligi mumkin. Ilmiy bilishda to‘g‘ri metodni tanlash bilishda muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani o‘rganish kerak, degan masala fan predmetini aniqlashga imkoi bersa, qanday o‘rganish kerak, degan masala esa ilmiy bilish metodini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi.

Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilai uzviy bog‘liqdir. Ilg‘or ilmiy nazariya faniing butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo‘lib, u ilgarigi

ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o'sha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardai qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o'zi erishgan yutuqlarga shubha bilai qarashni taqozo qiladi.

Fan, falsafa sohasida erishilgan yutuqlarni mutloqlashtirish, ularga ko'r-ko'rona sig'inish muqarrar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin bunday nisbiylikni mutloqlashtirish relyativizmni, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash esa, skeptitsizmni vujudga keltiradi. Fan taraqqiyoti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptitsizm jiddiy xalaqit beradi. Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo'nalishini o'zgartirishi, ilmiylikning o'ziga xos mezoni bo'lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyutsion nazariyasi, A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Gnoseologiyada haqiqat tushunchasi muhim o'rin tutadi. Haqiqat inson bilimlarining voqelikka muvofiq kslishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy xaqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishnipg asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o'zining mazmuniga ko'ra mutloq va nisbiy bo'lishi mumkin. Fan xaqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo'lib, ularning majmuasidan mutloq haqiqat vujudga keladi.

Haqiqat o'z mazmuniga ko'ra hamisha obyektivdir. YA'ni uning mavjudligi ayrim kishilarning hohish-irodasiga bog'liq emasdir. Masalan, O'zbekistonning milliy mustaqilligi obyektiv haqiqatdir. Ayrim kishilarning bu mustaqillikni tan olish yoki olmaslidanqat'i nazar, bu haqiqat o'z mazmunini saqlab qolaveradi. Haqiqatni atayin buzib yoki soxtalashtirish oxir-oqibatda fosh bo'ladivao'z qadrini yo'qotadi. Shuningdek, haqiqat hech qachon mavhum emasdir. U hamisha konkretdir. Gezel so'zları bilan ayttanda, nimaiki voqe bo'lsa, u haqiqatdir, haqiqat - voqelikdir. Haqiqat mazmunining konkret xarakteri joy va sharoitni e'tiborga olishni talab etadi.

Gnoseologiyada tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlarini anglash muhim ahamiyatga egadir. Uzoq yillar davomida tabiatshunoslik fanlariga xos bo'lgan obyektivlik, xolislik ilmiylikning muhim mezoni deb hisoblab kelindi. Biroq XX asr o'rtalarida fan-texnika inqilobi insoniyat oldida paydo bo'lgan muammolar

tabiatshunoslik fanlari oldiga qadriyatli yondashuv vazifasini qo‘ya boshladi. Aqlli mavjuddot bo‘lgan inson tabiatni o‘rganishda hamisha o‘z manfaatlarini ko‘zlaydi. Tabiat resurslari cheksiz va bitmas-tuganmasdir, degan bir yoqlama qarash oxir-oqibatda inson tomonidan tabiatga nisbatan shafqatsiz munosabatni vujudga keltirdi. XX asr oxirlariga kelib tabiatga nisbatan insonlarcha, qadriyatli munosabatda bo‘lish zaruriyati chuqurrok anglana boshladi.

Tabiatshunoslikda nisbatan barqaror sistemalar bilish obyekti hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalar tadqiqotchiga hech qanday qarshilik ko‘rsatmaydilar. Ijtimoiy bilishda esa, nisbatan tez o‘zgaruvchi sistemalar bilish obyekti hisoblanadi. Ijtimoiy bilishga xos bo‘lgan muhim xususiyat shundaki, u moddiy ishlab chiqarish sohalarinigina emas, balki jamiyatning ancha murakkab ma’naviy hayotini, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, qarashlar va g‘oyalarni ham o‘rganadi. Ijtimoiy fanlar milliy g‘oyava milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati va mazmuni to‘g‘risida zarur bilimlarga ega bo‘lishni mamlakatimizda bilimdon, har jihatdan etuk barkamol inson shaxsini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Bilish nazariyasi bo‘lajak mutaxassis-kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va kobiliyatlarni shakllantirishda ko‘maklashadi. Milliy mustaqillik yillarida gnoseologiya oldiga qo‘yilayotgan eng muhim vazifalardan biri ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta’minlaydigan omil va mexanizmlarni o‘rganish, ulug‘ ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida orttirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

Adabiyotlar ro‘yhati

28. Abdulla Sher. Axlokshunoslik. Darslik. -T.: UFMJ, 2010.
29. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. - T.:Uzbekiston, 2016.
30. Osnovi filosofii. Uchebnik. Izdaniye 2-ye, pererabotannoje, dopoln. /Pod red.M.A.Axmedovoy, V.S.Xana. - T.: Mexnat. 2004.
31. Pulatova D. , Izzetova E. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-b
32. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
33. Xusanov B. Gulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: Iktisod- moliya,

2010.

34. Sharipov M. Fayzixujayeva D. Mantik. -T.: Unversitet, 2007.
35. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
36. Plutarx. Saylanma. Z.A'lam va Urfon Otajon tarjimasi. - T.: Yangi asr avlod, 2006.
37. Pulatova D., Kodirov M., Axmedova M. va boshk. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. Ukuv kullanma. -T.: TDSHI.2013.
38. Pulatova D.,Ruzmatova G., Jalolova U.Axlokshunoslik. Ukuv kullanma. - T.: TDSHI.2013.
39. Pulatova D.A.,Fayzixujayeva D.E. Mantik.Ukuv kullanma.T.:TDSHI., 2013.

Mustahkamlash uchun mashqlar

Eng qadimgi ilk dunyoqarash shakli?	diniy-mifologik
Faqat sababiy bog'lanishlar orqali dunyoning falsafiy manzarasini yoritib beruvchi oqim nima deb nomlanadi?	
Meyor kategoriyasining falsafiy mazmuni.	muayyan sifatlar doirasidagi miqdoriy o'zgarishlar chegarasi
Agnostitsizm nima?	dunyoni bilishni inkor etuvchi ta'limot

4-MAVZU: FANDA METOD VA METODOLOGIYA TUSHUNCHASI.

ILMIY BILISH METODLARI (2 SOAT)

Reja:

1. Falsafiy muammolarning tabiatи va xususiyati. Ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, logika falsafaning asosiy qismlari sifatida.
2. Falsafa: nazariya va metod. Falsafiy mushoxadaning tarixiy shakllari. Materializm va idealizm. Ratsionalizm va irratsionalizm. Mushohada vatajriba. Falsafa metodologiya sifatida, falsafaning metodologiktamoyillari: ratsionalizm, empirizm, krititsizm.
3. Dialektik metod va uning muqobillari. Dialektikaning tarixiy shakllari. Determinizm. Dialektika kategoriyalari. Sabab va oqibat. Zaruriyat, tasodif, ehtimollik. Qonun tushunchasi, qonun zaruriyatning ifodasi sifatida. Determinizm va erkinlik muammozi. Falsafada germenevtik metod.

So‘zimiz boshida fan, falsafa va dindagi o‘xshashliklar hamda farqlarga epistemologik nuqtai nazaridan qisqacha tavsif berib o‘tmoqchimiz. Bu kishilik madaniyatining nafaqat epistemologik, balki ma’naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa ahamiyatlarga ham ega bo‘lgan mazkur hodisalarini demarkatsiya qilish (ajratish) masalasini ancha engillashtiradi. Ilmiy-falsafiy va diniy ta’limotlarning o‘xshashligi va farqlari to‘g‘risidagi masala bir qancha asarlarda mufassal tahlil qilingan.

Ilmiy bilim, ilmiy ta’limotga xos xususiyatlar – obyektivlik, umumiylilik, mantiqiy ziddiyatsizlik, empirik asoslanganlik emas, balki uning tizimliligidir. Modomiki, barcha falsafiy va diniy ta’limotlar muayyan tizim shaklida ifodalangan ekan, bu holda ularning hammasi ilmiydir. Shu bilan birga, u shaklan bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq barcha ilmiy,

falsafiy va diniy ta’limotlar tabiat hamda inson haqidagi bilim tizimlaridir.

Ilmiy ta’limotga xos bo‘lgan yana bir jihat – uning vorisiyligi. Bu biz yuqorida ko‘rib chiqqan «muvofiglik tamoyili»da o‘z aksini topadi, ma’lum sohadagi yangi ta’limot ayni shu sohadagi eski ta’limotni o‘z ichiga oladi. Bu nuqtai nazardan yuqorida zikr etilgan uch bilim sohasining epistemologik farqlarini aniqlash imkoniyatiga egamiz: ilmiy ta’limotlarning deyarli barchasi vorisiy va o‘zgaruvchan (dogmatik emas), falsafiy ta’limotlar esa faqat qisman vorisiy (bir falsafiy tizimdan boshqa falsafiy tizimga faqat alohida muammolar hamda ularning echimlari o‘tkaziladi) va shuning uchun ancha dogmatik, diniy ta’limotlar esa deyarli vorisiy emas, balki dogmatikdir (yangiliklar va ma’lum chekinishlar ularda shirk deb qoralanadi).

Teologiyaga diniy ta’limotning aqliy qismi deb qaraydigan bo‘lsak, uni qayd etilgan ontologiyali falsafiy tizim deb ta’riflash mumkin (masalan, iudaizm, xristianlik va islom uchun – Injilning Borliq kitobi). Diniy ontologik tizimda ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan qisman oqilona asoslash mumkin bo‘lgan masalalar (masalan, Xudo borligining dalillari), falsafiy metafizik tafakkur bilan qisman asoslash mumkin bo‘lgan masalalar (masalan, xristianlarning Muqaddas Uchligi), oqilona ilmiy-falsafiy yondashuv bilan ham, falsafiy metafizik yondashuv bilan ham asoslab bo‘lmaydigan masalalar (masalan, Iso Masihning tirilishi) mavjud.

Bu qismda «e’tiqod va bilim»ning o‘zaro nisbati an’anaviy muammosiga murojaat etamiz. Mazkur muammo uzoq yillardan beri muhokama qilinishiga qaramay, u noto‘g‘ri ta’riflangan. Unda ilmiy-falsafiy va diniy ta’limotlarning nazarda tutiluvchi dixotomiyasini topmaymiz. Bundan tashqari, Xudoga e’tiqod qilish o‘z holicha dindorlik bo‘la olmaydi, ma’lumki, iblislar ham e’tiqod qiladi. Dindorlik Xudoning borligiga ishonibgina qolmasdan, uni sevishni va uning ko‘rsatmalariga amal qilishni ham nazarda tutadi.

Ilmiy, falsafiy va diniy ta’limotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, «e’tiqod» oqilona-empirik yo‘l bilan isbotlab bo‘lmaydigan bilim sifatida (ishonch, postulatlar, aksiomalar) va «bilim» oqilona-empirik yo‘l bilan isbotlab bo‘ladigan bilim sifatida, tabiat va inson haqidagi ta’limotlarning uchala shaklida ham ishtirok etadi.

Darhaqiqat, hatto matematika yoki tabiiy fanlar singari bilimning haqiqiy ma'noda ilmiy sohalari zamirida ham postulatlar va aksiomalar yotadi. Shopengauerning ta'biri bilan aytganda, haqiqat dalilga muhtoj emas, ammo dalillar isbotlab bo'lmaydigan haqiqatlarga muhtojdir. Boshqa tomondan, diniy ilohiy yoki teologik ta'limotlar ma'lum darajada tarix, lingvistika, mantiq, germenevtika va falsafa fanlaridagi tadqiqotlarning natijalariga asoslanadi. Masalan, tabiatning yaxshilik va yomonlik, teoditseya, Xudoning borligini isbotlash kabi teologik muammolarning echish variantlari mantiqiy-falsafiy darajada yaratilgan.

Bu o'rinda Ibn Rushd haqiqatning ikkiyoqlamaliligi haqidagi ta'limotida ilgari surgan diniy va ilmiy-falsafiy bilimlarning o'zaro muvofiqligi g'oyalariga to'xtalib o'tish lozim. Ibn Rushdning fikricha, dunyoni tushunishning bu ikki turli sohasini birlashtirish mumkin emas, ammo ular o'z sohasida bir-birini e'tirof etishi kerak. Bunda Ibn Rushdning o'zi Aristotel mantig'idan kelib chiqadigan haqiqatni afzal ko'rgan bo'lsa kerak. O'zining «Din va falsafa muvofiqligi haqida» asarida: agar sillogizm diniy ta'limot bilan to'qnashadigan bo'lsa, u holda diniy ta'limotni allegorik talqin qilish talab etiladi, deb yozadi.

Bir tomondan Xudoni Absolyut borliq sifatida mukammal bilish mumkin emas. «Xudo bormi yoki yo'qmi-bilmayman. Inson o'zining qisqa umrida bu savolga javob bera olmaydi», deb yozgan edi Protagor. Ammo bu faqat dinsizlarning fikri emas, bu qarashni teologiya ham ilgari suradi. Boshqa tomondan esa, ateistik ilmiy dunyoqarash doirasida tabiat va insonni ham mukammal bilish mumkin emas.

Shuni ham qayd etib o'tish kerakki, bilish nazariyasining muhim sohasi—germenevtika (matnlarning ma'nosini bilish haqidagi ta'limot) patristika va o'rtalasrilar diniy falsafiy tafakkuri zaminida falsafiy-ilmiy bilimlar, ayniqsa, Aristotelning mantig'i va teologiyaning sintezi natijasida vujudga kelib, shakllandi. Pirovard natijada, germenevtika XIX asrda Shleyyermixer va Diltey yo'naliishida, XX asrda esa Gadamer, Xabermas va boshqalarning yo'naliishida vorisiylik va tizimlilikning barcha belgi-alomatlariga ega bo'lgan ilmiy-falsafiy bilim sifatida shakllandi. Bu o'rinda teologiyaga o'z ontologiyasiga ko'ra yaqin falsafiy ta'limotlardan ham ko'proq tushunchalar tizimlarini tuzish,

dekonstruksiya va tahlil qilish metodologiyasi rivojlangan falsafiy ta’limotlar teologiya uchun ko‘proq foydali bo‘lishini qayd etib o‘tish lozim.

Falsafa fan uchun, shu jumladan, teologiya uchun ham, dunyoning tuzilishi haqidagi bilimlar manbai emas, balki teologiyada muqaddas kitob hamda aqidalarni talqin qilishda va fanda bilish faoliyatni va bilimni tashkil etishda foydalilaniladigan bilish vositalarini boyitish manbaidir.

Fan falsafasi va metodologiyasida ilmiy bilim tuzilishi va o‘sishining oqilona rekonstruksiyalari amalga oshiriladi, bilish faoliyatining tamoyillari, usul, metod va shakllari aniqlanadi. Xo‘sh, bunday rekonstruksiyalar qay darajada to‘liq va ishonchli bo‘lishi mumkin?

Ularning to‘liq emasligi shuning o‘zidayoq namoyon bo‘ladiki, ilmiy bilim genezisi, fan falsafasi va metodologiyasi fan hodisasini tushunishni to‘la oqilonalahtirishga harakat qilishiga qaramay, faqat insonning ongli empirik oqilona faoliyatni natijasidagina sodir bo‘lmaydi. Bu haqda Uaytxed shunday deb qayd etgan edi: «Fanning antiratsionalizmi uning metodologiyasini saqlab qolish vositasi sifatida qisman o‘zini oqlaydi... Fikr yuritish metodologiyasi abstrakt sohani cheklashni taqozo etadi. Bunga muvofiq haqiqiy ratsionalizm hamisha o‘z doirasidan chetga chiqishi va konkretlikka qaytar ekan, undan ilhomlanishi lozim. Shunday qilib, mag‘rur ratsionalizm antiratsionalizmning shakllaridan biridir. U mavhumlikning ma’lum qatorida tafakkurning to‘xtab qolishini anglatadi. Fanda aynan shunday bo‘ladi».

Endi fan faylasufi va metodologi foydalananidigan empirik materialning informativ xususiyatiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Xo‘sh, ular nimani tahlil qiladi? «Tabiat–inson bilimi» zanjirining soddalashtirilgan sxemasini tasavvur qilaylik: tabiiy obyekt–tabiatni bilayotgan subyekt–ong ostidagi va ongdagi, oqilona va nooqilona ijodiy intellektual jarayon–aniq g‘oyani jamlash – g‘oyani nazariy jihatdan qayta ishlash–yangi bilimni original ilmiy maqola yoki xabarda ifoda etish (dastlabki manba)–yangi bilimni maxsus ilmiy monografiya yoki sharhda ifoda etish–tarixiy-ilmiy asarda va darslikda ifodalash – ommabop nashrda va «yirtma kalendar» tarzidagi ommabop nashrlarda ifodalash va h.k. Xo‘sh, fan faylasuflari va metodologlari nima bilan «oziqlanadi»? Ular dastlabki

manbaga kamdan-kam etib boradilar, ammo dastlabki manba bu g‘oya genezisini ab initio tavsiflash emas, balki bilimni ideallar, normalar va shu kabilarga muvofiq tarzda ifodalash demakdir. Buning ustiga, g‘oyaning muayyan asoslariga muallifning ishonchi aldamchi bo‘lishi mumkin. Har bir odam muayyan g‘oya o‘zida qachon va nima sababga ko‘ra tug‘ilganligini doimo anglab etavermaydi. Ong osti jarayonlari masalasiga kelsak, ularni umuman anglash mumkin emas.

Olim o‘z tadqiqot predmetiga mana shu modellar orqali qaraydi (ontologik jihat). Falsafa dunyoning universal obyektiv xususiyatlarga ega bo‘lgan eng umumiy manzarasini yaratadi, moddiy voqelikni uning barcha belgi-alomatlari, harakat shakllari va fundamental qonunlari birligida ifoda etadi. Dunyoning bunday falsafiy manzarasi (diniy, mifologik manzaralaridan farqli o‘laroq) dunyoning fizik, biologik va boshqa manzaralarini universal ontologik qoida sifatida ishlab chiqish uchun asos va shart bo‘lib xizmat qiladi.

Boshqacha qilib aytganda, falsafa dunyoga umumiy qarashni beradi. Alovida ilmiy xususiyatga ega bo‘lgan qarashlar yanada keng yaxlitlik–voqelikni falsafiy tushunishning tarkibiy qismlari sifatida yuqorida zikr etilgan falsafiy qarash asosiga quriladi. Aynan mana shu qarash alovida ilmiy qarashlarning o‘rni va ahamiyatini ko‘rish, ularni dunyoning umumiy manzarasining zarur jihatlari, holatlari sifatida qayd etish imkonini beradi.

Falsafa dunyoga umumiy qarashni faqat uning oldingi (o‘tmishdagi) va hozirgi holatidagina ifoda etmaydi. Falsafa o‘zining bilish faoliyatini amalga oshirish jarayonida har doim insoniyatga uning hayot dunyosining mumkin bo‘lgan ayrim variantlarini taklif etadi. Shu ma’noda, u prognostik funksiyalarga egadir. Xullas, falsafaning madaniyatdagi eng muhim vazifasi faqat inson olamining tuzilishi va asoslari qanday ekanligini emas, balki u qanday bo‘lishi mumkin va lozimligini ham tushunib etishdan iborat.

2. Falsafa tadqiqotchini bilish jarayonining umumiy qonuniyatları, haqiqat hamda unga etish yo‘llari va shakllari haqidagi ta’limot bilan «qurollantiradi» (gnoseologik jihat). Falsafa (ayniqsa, uning ratsionalistik ko‘rinishida) olimga bilish munosabatlarining mohiyati, uning shakllari, darajalari, dastlabki shartlari va umumiy

asoslari, uning haqiqiyligi shartlari, bilishning ijtimoiy-tarixiy jihatlari to‘g‘risida dastlabki gnoseologik ko‘rsatmalar beradi.

Dunyoni bilish jarayonini barcha xususiy fanlar amalga oshirsa-da, bilishning qonuniyatları, shakl va tamoyillarini o‘rganish mazkur fanlar birortasining ham bevosita predmetini tashkil etmaydi. Bu bilan falsafa (aniqrog‘i, uning asosiy bo‘limlaridan biri - gnoseologiya) maxsus shug‘ullanadi. Bunda u bilish jarayonining alohida jihatlarini tahlil qiluvchi boshqa fanlar (psixologiya, sotsiologiya, fanshunoslik va b.)ning ma’lumotlariga tayanadi.

Bundan tashqari, har qanday dunyoni bilish, shu jumladan, ilmiy bilish har bir tarixiy davrda ma’lum «mantiqiy tushunchalar tizimi»ga muvofiq amalga oshiriladi. Fanning yangi obyektlarni tahlil qilishga o‘tishi yangi tushunchalar tizimiga o‘tishiga sabab bo‘ladi. Agar madaniyatda obyektlarning yangi tipiga mos keladigan tushunchalar tizimi yuzaga kelmasa, mazkur obyektlar tushunchalarning nomuvofiq tizimi yordamida ishlab chiqiladiki, bu ularning muhim xususiyatlarini ochish imkonini bermaydi. Falsafa o‘z tushunchalar tizimini rivojlantirib, shu tariqa tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar uchun bo‘lajak tushunchalar apparatini o‘ziga xos dastlabki dasturini tayyorlaydi. Falsafada ishlab chiqilgan tushunchalardan muayyan ilmiy izlanishda foydalanish tushunchalarning yanada boyishiga va ularning mazmuni rivojlanishiga olib keladi.

So‘nggi vaqtida bilish nazariyasining rivojlanishidagi yangi tendensiyalarni tahlil qilishga, uning mazmunini hozirgi zamon fani taraqqiyotidagi yangi bosqich bilan muvofiq holatga keltirishga qiziqish kuchaydi. Shu munosabat bilan, jumladan, bilishning obyekti va obyektivligi muammolari («naturalistik obyektivizm»ni tanqid qilgan holda), obyektlarning mavjudligi haqidagi qarashlarning ma’lum konseptual tizimga bog‘liqligi, ilmiy bilish va uning metodologiyasi qadriyat va maqsadlar bilan o‘zaro aloqasi faol muhokama qilinmoqda, ko‘pincha ilmiy bilishning «jamoaviy subyekti» deb tushunilayotgan subyektni bilish faoliyatining vositalari, amal va usullariga nisbatan obyektning nisbiyligini yanada qat’iyroq hisobga olishga e’tibor qaratilmoqda.

Oqilonalik arsenaliga «noan’anaviy» xususiyatlarni kiritish orqali bilimning obyektivligini yangidan tushunib etish mazkur xususiyatlarning o‘zaro aloqalarini yanada

chuqur tahlil qilishga, gnoseologik va sotsiologik «konseptual sxemalar»ni bilishning yagona nazariyasiga birlashtirishga sabab bo‘ladi. Murakkab, o‘z-o‘zini tashkil etuvchi, yaxlit, o‘z-o‘zini rivojlaniruvchi, shu jumladan, inson omili bilan bog‘liq bo‘lgan tizimlar (biotexnologiya, ekologiya, informatika, ijtimoiy-madaniy soha va sh.k.)ning jadal rivojlanishi va fan sohasiga kiritilishi munosabati bilan bilish nazariyasida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bilish obyektlarini ijtimoiy-madaniy determinatsiya qilish masalalari gnoseologiyaning muammolar maydoniga tobora keng kirib kelmoqda.

3. Falsafa fanga ma’lum tushunchalar asosida ta’riflanuvchi eng umumiyl tamoyillarni beradi. Mazkur tamoyillar fanda umumiyl qoidalar, universal normalar, talablar shaklida real faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur umumiyl qoidalar, universal norma va talablarni bilish subyekti o‘z tadqiqotida amalga oshirishi lozim (metodologik jihat). Falsafa borliq va bilishning eng umumiyl qonuniyatlarini o‘rganib, ilmiy tadqiqotning eng umumiyl metodi bo‘lib xizmat qiladi. Ammo mazkur metod xususiy fanlarning maxsus metodlari o‘rnini bosa olmaydi. Zotan, u dunyoning barcha sir-asrorlarini ochib beruvchi universal kalit emas, u xususiy fanlarning muayyan natijalarini ham, ularning o‘ziga xos metodlarini ham belgilamaydi.

Masalan, dialektika tamoyillari ma’lum muvofiqlashtirilgan tizimni hosil qiladi. Mana shunday tamoyillar birgalikda eng yuqori darajadagi metodologik dasturni tashkil etadi. Ular faqat tadqiqotning umumiyl rejasini, uning strategiyasini belgilaydi (shuning uchun ham ular strategik tamoyillar, deb ataladi), bilishni voqelikni uning universal umumiyl xususiyatlarida o‘zlashtirishga yo‘naltiradi. Mazkur tamoyillarning evristik qudrati ularning mazmuniga hamda ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanilishiga bog‘liq.

Falsafiy-metodologik dastur «faktlarni bichish va qayta bichish»ga xizmat qiladigan qat’iy sxema, «andoza», stereotip emas, balki tadqiqot uchun «umumiyl qo‘llanma» bo‘lishi kerak. Falsafiy tamoyillar normalarning mexanik «to‘plami», «qoidalar ro‘yxati» ham emas. Falsafiy tamoyillar majmui–moslashuvchan, harakatchan va ochiq tizim, u tadqiqotning oldindan o‘lchangan, to‘la kafolatlangan hamda muvaffaqiyatga erishishi ayon bo‘lgan yo‘llarini «ishonchli ta’minlay» olmaydi.

4. Falsafadan olim ma’lum qarashlar, ko‘rsatmalar, hayot mazmuniga oid

mo‘ljallar oladi. Ular ilmiy tadqiqot jarayoniga va uning pirovard natijalariga–ba’zan ancha jiddiy (ayniqsa, gumanitar fanlarda) ta’sir ko‘rsatadi (aksiologik jihat).

Falsafiy tafakkur faqat intellektual (oqilona) jihatlarni emas, balki har doim madaniyatlarning muayyan tarixiy tiplariga mansub bo‘lgan va shu bilan birga, butun insoniyat mulki (umuminsoniy qadriyatlar) hisoblanadigan ma’naviy-emotsional, estetik va boshqa universalliklarni ham aniqlaydi. Falsafa dunyoni tushunish tajribasini tanqidiy «seleksiya» qilish, uni jamlash va keyingi avlodlarga berish vazifalarini bajaradi. Bu bilan u olimga dunyoni tushunishning turli-tuman variantlarini («mumkin bo‘lgan olamlar», «dunyoqarash obrazlari») taklif qiladi. Bu variantlar hamisha inson tajribasining barcha shakllari–amaliy tajriba, bilish tajribasi, estetik tajriba va boshqa tajribalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Falsafa (ayniqsa, uning «ekzistensial variantlari»da) olimga uning obyektiv dunyoga (va undagi o‘z o‘rniga) qarashlari tizimini, uning hayotiy pozitsiyasi, e’tiqodlari, ideal, qiziqish, axloqiy tamoyillari va h.k.ni shakllantirish uchun juda katta material «yetkazib beradi».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avesto. Tarixiy–adabiyodgorlik. “Sharq”. Toshkent – 2001.
2. Aristotel. Politika. – M.: AST, 2006. – 393 s.
3. Aflatun. Qonunlar. Urfon Otajon tarjimasi. Yangi asravlodi, 2002. – 458-bet.
4. Berk E. Pravleniye, politika i obshchestvo / per. s angl. – Kanon-Press-Sentr, 2001.
5. Beruniy Abu Rayhon. 100 hikmat: ibratli so‘zlar. – T.: Fan, 1993.
6. Bobur. Boburnoma. T.: Yulduzcha. 1989.
7. Gegel G.V.F. Filosofiya prava / Per. B.G. Stolpnera, M.I. Levinoy; Sost. D.A. Kerimov, V.S. Nersesians. – M.: Misl, 1990. – 526 s.
8. Gobbs T. ... Leviafan ili materiya, forma i vlast gosudarstva serkovnogo i grajdanskogo. – M.: Sotseskiz «Obrazsovaya», 1936. – 503 s.
9. Ibn Sina. Izbrannkiye filosofskiye proizvedeniya / Otv. red. Asimov M.S. – M.: Nauka, 1980. – 554 s.

10. Kant I. Ideya vseobshey istorii vo vsemirno-grajdanskem plane. K vechnomu miru (2-oye izd., ispr. i dop.). – Almati: Jetjargi, 2004. – 158 s.
11. Lokk Dj. Sochineniya: V 3-x t. T.3. (Per. s angl.) / Red. i avt. primech. I.S. Narskiy, A.L. Subbotin. – M.: Misl, 1988. – 668 s.
12. Makiavelli N. Sochineniya. Gosudar.-M.:, 1996.
13. Navoiy A. Mahbubul-qulub.-T.:Adabiyotvasan'at, 1988. – 208 b.
14. Navoiy A. Saddi Iskandariy.- T.: Adabiyotvasan'at, 1978. - 330 b.
15. Nizomul mulk. Siyosatnoma yoki siyarul-muluk.- T.: Adolat, 1997. – 255 b.
16. Platon. Gosudarstvo// Platon. Soch. v 3-x tomax. T. 3. Chast I. M., 1971.

МУСТАХКАМЛАШ УЧУН МАШҚЛАР

Savol	Javob
Lotinlashtirilgan nomi ”Alfraganus” bo‘lgan Markaziy Osiyolik faylasuf kim edi?	
Arastu asarlarining sharxlovchisi bo‘lgan birinchi arab faylasufi kim?	
Teologiya bu nima?	Xudo haqidagi ta’limot
Tomizm asosida nima yotadi?	Arastu ta’limoti

AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

**1-mavzu: Hozirgi zamon metodologiyasi: kumatoid,
keys stadi, abduksiya (2 soat)**

MA’RUZADA TA’LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Tinglovchilar soni:</i>	Vaqti: 2 soat.
<i>O’quv mashg’ulotining shakli</i>	Kirish – mavzu bo‘yicha vizuallashgan ma’ruza
<i>O’quv mashg’ulotining maqsadi</i>	Falsafa fani, uning atamasi, dunyoqarash tushunchalari bo‘yicha tinglovchilarni bir xil fikrlash inersiyasidan xoli qilish va katta miqdordagi falsafa va dunyoqarash atamalarining ta’riflari, predmetning mazmun, mohiyati to‘g‘risida to‘liq tushuncha hosil qilish.
<i>Pedagogik vazifa:</i> - «Falsafa» atamasi-ning mohiyati va mazmuni, uning tari-xiy va zamonaviy tal-qinlarini tanishti-rish; - Falsafaning babs mavzulari va ularning maqsadlarini mohiya-tini ochib berish; - Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati va mazmunini yoritib berish; - Dunyoqarash tushuncha-sining tarixiy turla-rini va mazmun mohiya-tini ochib berish	<i>O’quv faoliyatining natijasi:</i> <i>«Falsafa» atamasiga G‘arb va Sharqda berilgan talqinlarining mohiyati bilan tanishadi;</i> <i>Falsafaning tarkibiy qismi, vazifalari, maqsadlarini sanab beradi va ochib beradi;</i> <i>Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni bilan tanishadi;</i> <i>Mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarash va uning ta’riflarini, paydo bo‘lish bosqichlarini sanab beradi va izohlaydi;</i>
<i>O’qitish usullarivatexnika</i>	Ma’ruza,namoyish, blits-so‘rov, pinbord texnikasi, aqliy hujum.
<i>O’qitish vositalari</i>	Ma’ruza matni, kompyuter texnologiyasi («Falsafa» fanidan elektron o‘quv-uslubiy majmua), slaydlar.
<i>O’qitish shakli</i>	Frontal, kollektiv ish
<i>O’qitish shart-sharoitlari</i>	Guruhiy,yakka tartib qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki nazorat, yozma nazorat.

Ma’ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	o‘qituvchi	tinglovchi
1 bosqich. Kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O‘quv fanining nomini aytadi, predmetning dastlabki umumiy tasavvurini beradi. Uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlarini va fan strukturasini tanishtiradi. (1-ilova)</p> <p>1.2. Mazkur fanning o‘rganiladigan mavzulari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro‘yxati bilan tanishtiradi. (2-ilova)</p> <p>O‘quv dasturini tinglovchilarga tanishtiradi.</p> <p>1.3. Ma’ruza darsining maqsadi va o‘quv faoliyati natijalarini aytadi. Tinglovchilarni suhbat tortish uchun jonlantiruvchi savollar beradi. (3-ilova).</p>	
2 bosqich. Asosiy jarayon (55 daqiqa)	<p>2.1. Ma’ruza rejasining barcha savollari bo‘yicha vizual materialni namoyish qiladi. (4- ilova)</p> <p>Mavzuning asosiy joylarini yozib olishlarini so‘raydi.</p> <p>Tayanch bilimlarini tekshirish maqsadida faollashtiruvchi savol-javob o‘tkazadi. (5-ilova)</p> <p>Javoblarni to‘g‘rilaydi va xulosalaydi.</p> <p>2.2. Mavzuning tayanch iboralari Pinbord usulida o‘rganiladi. Mavzuga oid bo‘lmagan iboralar olib tashlanib, kerakli tushuncha va iboralar qo‘shiladi. Berilgan javoblarni to‘g‘rilaydi, doskaga yozib beradi va xulosalaydi. (6-ilova)</p> <p>2.3. To‘g‘ri javob bergen tinglovchilarni rag‘batlantiradi.</p>	<p>Tinglaydi, o‘rganadi, Yozadi, aniqlaydi, savollar beradi. Asosiy joylarini yozadi</p> <p>Savollarga javob beradi</p> <p>Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladi. Yozadi.</p> <p>Javob beradi</p>

<p>3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qiladi. Faol ishtirok etgan tala-balarning bilim va ko‘nikmalarini baxolaydi.</p> <p>3.3. Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘- riladigan masalani e’lon qiladi, va mustaqil tayyoragarlik ko‘rishlarini so‘raydi.</p> <p>3.4. Tinglovchilarga uyga vazifa qilib: (1).“Falsafa va fikr” mavzusida esse yozib kelish; (7- ilova) (2). Ma’ruza anjuman darsining dokladlar mavzusi beriladi. (8- ilova) (3). Kelgusi mavzu e’lon kilinadi va seminarga tayyorlanib kelishni aytadi. (4). O‘z-o‘zini nazorat yuzasidan savollar bilan tanishadi. (9- ilova). (5). Foydalilaniladigan adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishadi.</p>	<p>Tinglaydi faol tinglovchilar baholanadi</p> <p>Mustaqil ishslash uchun topshiriqni yozib oladi</p> <p>Dokladlar mavzusiga tayyorlanadi.</p> <p>O‘UMga qarang</p> <p>O‘UMga qarang</p>
---	--	--

1.2. Amaliy mashg‘ulotni o‘qitish texnologiyasi

<p><i>Tinglovchilar soni:</i></p>	<p>Vaqti: 2 soat.</p>
<p><i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i></p>	<p>Bilimlarni chuqurlashtirish va mustaxkamlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulot</p>
<p><i>Amaliy mashg‘ulot rejasi</i></p>	<p>Falsafaning predmeti va asosiy mavzulari. Falsafaning asosiy masalasi. Dunyoqarash tushunchasi, uning shakllari va tarixiy turlari. Mustaqillik va falsafiy dunyoqarashning o‘zgarishi.</p>
<p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi</i></p>	<p>Falsafa fani, uning atamasi, dunyoqarash tushunchalari to‘g‘risidagi bilimlarini mustax-kamlash va chuqurlashtirish.</p>
<p><i>Pedagogik vazifa:</i> - «Falsafa» atamasi va</p>	<p><i>O‘quv faoliyatining natijasi:</i> «Falsafa» atamasiga va predmetiga Pifagor va</p>

<p><i>predmetiga Pifagor va Aflatun tomonidan berilgan nazariy bilimlarni mustaxkamlash;</i></p> <p><i>- Abu Nasr Farobiyning falsafa fanini taraqqiyotidagi qo'shgan xissasini taxlil etish</i></p> <p><i>-Falsafada milliylik va umuminsoniylikni anglab etish;</i></p> <p><i>- Dunyoqarash to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtiradi va ijodiy ishni tashkil etadi;</i></p> <p><i>- Mustaqillik va falsafiy dunyoqarashning o'zgarishini yoshlar kamolotiga ta'sirini nazariy ko'rsatib berish.</i></p>	<p><i>Aflatun tomonidan berilgan nazariy bilim asosidagi ta'rifni bera oladi;</i></p> <p><i>Abu Nasr Farobiyning falsafa fanini taraqqiyotidagi qo'shgan xissasini taxlil etadi;</i></p> <p><i>O'zbek falsafasi to'g'risidagi qarashlarning bugungi kundagi axamiyatini tushuntirib beradi;</i></p> <p><i>Mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarash va uning ta'riflarini aytadi va paydo bo'lish shart-sharoitlarini taxlil etadi;</i></p> <p><i>Mustaqillik yillarida yoshlarga berilgan keng imkoniyatlar bilan tanishadi.</i></p>
<p><i>O'qitish usullariva texnika</i></p>	<p>Amaliy mashg'ulot, bir-biridan o'rganish usuli; grafikli organayzer</p>
<p><i>O'qitish vositalari</i></p>	<p>Darslik, kompyuter texnologiyasi, slaydlardan foydalanish</p>
<p><i>O'qitish shakli</i></p>	<p>«Taqdimot», «Loyiha» «guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash», blits-o'yin.</p>
<p><i>O'qitish shart-sharoitlari</i></p>	<p>Texnik vositalalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgano'quv xona.</p>
<p><i>Monitoring va baholash</i></p>	<p>Og'zaki nazorat, yozma nazorat, o'quv topshiriq</p>

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	O‘qituvchi	Tinglovchi
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Tinglovchilarga uyga vazifa qilib berilgan “Falsafa va fikr” mavzusida yozilgan esseni tekshiradi, baxolaydi.</p> <p>1.2. O‘quv mashg‘ulotining mavzusini, maqsadini, o‘tkazish tartibini e’lon qiladi.</p> <p>1.3. «Falsafaning predmeti va asosiy mavzulari. Falsafiy dunyoqarash» mavzusi bo‘yicha tinglovchilarning bilimlarini faollashtirish maqsadida blits-so‘rov o‘tkazadi. (1-ilova)</p> <p>Javoblarni aniqlashtiradi, xa-tolarni to‘g‘rilaydi, xulosa-laydi.</p> <p>1.3. Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar va amaliy mashg‘ulot mavzusi, rejasiga izox beradi (2-Ilova).</p> <p>1.4. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baxolash mezonlarini e’lon qiladi (3-Ilova).</p>	<p>Uyga ma’ruza darsida berilgan vazifani topshiradilar.</p> <p>Tinglaydi. Yozadi savollarga javob beradi.</p> <p>Tayanch iboralar bilan tanishadi</p>
2 bosqich. Asosiy jaran (60 daqiqa)	<p>2.1. «Falsafa» atamasiga va predmetiga ta’rifni xamda Falsafaning paydo bo‘lishi, tar-kibiy qismi, vazifalari, maq-sadlari kelib chiqish shart-sharoitlarini «loyixa» texno-logiyasi asosida organayzerlarda ishlab chiqishni tashkil etadi (4-Ilova).</p> <p>O‘qituvchi tinglovchilarga murojaat qiladi va eng to‘g‘ri javoblar xamda fikrlarni qayd qiladi.</p> <p>2.2. Tinglovchilarni 4 ta guruxlarga</p>	

	<p>bo‘lish orqali Xozirgi zamon falsafasining dolzarb muammalari to‘g‘risidagi qarashlarning bugungi kundagi axamiyatini xamda mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarash, ularning ta’riflarini, paydo bo‘lishi, shakllanishi bo‘yicha topshiriq bilan tanishtiradi (5-Ilova).</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanganini e’lon qiladi va qabul qiladi</p> <p>O‘qituvchi tinglovchilarga murojaat qiladi va eng to‘g‘ri javoblar xamda fikrlarni qayd qiladi, xulosalaydi</p>	
3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 min)	<p>3.1. Mavzuda qo‘yilgan savollar va ularning yoritilganiga o‘qi-tuvchi yakun yasaydi (xulosa qila-di) aytilmagan tomonlari ustida ishslash lozimligini aytadi.</p> <p>3.2. “Men falsafani o‘rganaman blits o‘yini o‘tkaziladi” (6-Ilova).</p> <p>3.3. Guruxlarga o‘zaro baxolash natijalarini e’lon kiladi.</p> <p>3.4. Tavsiya qilingan adabiyot-larni o‘rganadi. (7-Ilova)</p> <p>3.5. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beriladi. Kelgusi mavzu e’lon qilinadi va seminarga tayyorlanib kelishni aytadi (8-Ilova).</p>	

2-mavzu: Analitik falsafaning vujudga kelishi (2 soat)

MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Tinglovchilar soni:</i>	Vaqti: 2 soat.
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Ma'ruza – anjuman
<i>Ma'ruza rejasি</i>	<p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> Analitik falsafa tushunchasi va uning vujudga kelishi hamda asoschilari. Analitik falsafa hozirgi zamon G'arb falsafasida neopozitivizm yo'naliشining davomi sifatida. Yangicha tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda analitik falsafa.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>	Misr va Bobil, Xindiston va Xitoy, kadimgi Yunoniston va Rim falsafasi, qadimgi ajdodlarimizning fikr-mulohazalari, o'ziga xos ta'limotlarining mohiyati to'g'risida to'liq tushunchani shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifa:</i> - Sharq – jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri ekanligini yoritish; - Qadimiy Sharq, Misr va Bobildagi falsafiy fikrlardan misollar keltirish; - Hind falsafasining mazmun mohiyatini gapirib berish; - Xitoy falsafiy maktablari va shakllangan g'oyalar haqida gapirib berish;	<p>o'quv faoliyatining natijasi:</p> <p>Sharq – jahon sivilizatsiyasining markaz-laridan biri ekanligini yoritadi.</p> <p>Qadimiy Sharq, Misr va Bobildagi falsafiy fikrlardan misollar keltiradi va taqqoslaydi.</p> <p>Hind falsafasi: vedalar va upanishadalar, jaynizm, hinduizm va buddizm xaqida gapirib beradi.</p> <p>Qadimgi Xitoy falsafasi: Konfutsiy va Lao Szi, konfutsiylik va daosizm g'oyalarining asosiy mazmunini gapirib beradi.</p>
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza-anjuman, bahs-munozara, taqdimot texnikasi
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, lazerli proyektor, kompyuter texnologiyasi ma'ruzachilar tomonidan tayyorlangan ko'rgazmalar.
<i>O'qitish shakli</i>	Kollektiv ish
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqtি	Faoliyatning mazmuni	Tinglovchi
	O'qituvchi	
Tashkiliy bosqich. (3 daqiqa)	<p>1.1. Ma'ruza mavzusi bo'yicha dokladlarning mavzularini avvalgi darsda beradi (1-Ilova).</p> <p>1.2. Berilgan mavzularning fanni o'zlashtirishdagi dolzarbligini tushuntiradi.</p> <p>1.3. Ma'ruzani o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qiladi.</p> <p>1.4. Doklad mavzularini xamda xar bir mavzu bo'yicha opponent va taqrizchilarning erkin tanlovinini tashkil etadi.</p> <p>1.5. Dokladchilarga tanlangan referat bo'yicha reja tuzish vazifasini beradi. Ularga maslaxatlar o'tkazadi.</p> <p>1.6. Guruxdagи qolgan tinglovchilarga ma'ruza matnini o'rganib dokladchilar uchun savollar tuzishni vazifa qiladi (2-Ilova).</p> <p>1.7. Baxolash tizimi bilan opponent va taqrizchilarni tanishtiradi. Dokladchilar bilan chiqish shakli va reglamentni muxokama qiladi(3-Ilova).</p> <p>1.8. Referatlar mazmuni bilan tanishadi.</p>	
1 bosqich. O'quv mashg'ulotga kirish (5 daqiqa)	<p>1.1 Mavzuni va uning maqsadi, rejalahtirilgan o'quv natija-larni ko'rgazmali ravishda slayd yoki kafedra professor-o'qituv-chilari tomonidan tayyorlangan elektron o'quv-uslubiy majmuani taqdim etgan xolda tanishtiradi.</p> <p>1.2 Ma'ruza-anjumanni baxs-munozara shaklida o'tilishini e'lon qiladi va baxolash mezonlarini ekranga chiqarib qo'yadi (4-Ilova).</p>	
2 boskich. Informatsion (axborot) (60 daqiqa)	<p>2.1. Dokladchilarning chiqishla-rini tashkil etadi.</p> <p>2.2. Doklad mazmuni bo'yicha kollektiv muxokamani tashkil etadi va ilg'or tinglovchilar bilan kollektiv muxokama jarayonini yo'naltiradi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - savollar beradi (2-ilova) -dokladning asosiy qismlarini aniqlashtiradi. -dokladda aytilgan gaplarga qiziqish uyg'otadi. -doklad mazmuniga alovida e'ti-bor qaratadi. -dokladlarning e'tiborli joy-larida ularni to'xtatadi va kollektiv muxokamani tashkil 	<p>2.1. Ishtirokchi tinglovchi dokladini o'qiydi. Taqrizchidokladning yutuq va kamchilik-larini aytadi.</p> <p>Opponentlar o'z fikr-larini bildirib savollar beradi.</p> <p>2.2. Tinglovchilar jamoa bo'lib</p>

	<p>etadi.</p> <p>-xar bir doklad qisqacha umum-lashtiriladi.</p>	<p>doklad maz-munini muxokama qiladilar, baxslashadilar.</p> <p>2.3. Mavzu bo'yicha munozaralarni ekspert-lar baxolaydilar.</p>
3 bosqich. Yakuniy bosqich (12 daqiqa)	<p>Mavzu bo'yicha umumiylar xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Tinglovchilarga baxolash nati-jasini e'lon qiladi. Natijalarga izox beradi.</p> <p>3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi(5-Ilova).</p>	<p>Ekspertlar:</p> <p>1.Dokladchilar, oppo-nentlar va retsenzent-larning faoliyatiga baxo beradilar.</p> <p>2. Ballarni qo'shib baxo chiqaradilar O'UMga qarang</p>

3-mavzu: Tarkibiy funksional tahlil (2 soat)

Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi

<i>Tinglovchilar soni: 55</i>	<i>Vaqti: 1 soat.</i>
<i>O'quv mag'ulotining shakli</i>	Informatsion – ko'rgazmali ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<p>Reja:</p> <p>1. Funksional tahlil tushunchasi.</p> <p>2. Funksional bog'lanish tushunchasi.</p> <p>3. Tarkibiy funksional tahlil.</p>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>	O'rta asrva yangi davr Yevropa falsafiy fikrlari haqida tushuncha hosil qilish.
<p><i>Pedagogik vazifa:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - <i>O'rta asrlarda Yevropa madaniyatining taraqqiyoti natijasida shakllangan falsafiy ta'lilotlarning mazmunini yoritish;</i> - <i>Yevropada XV–XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va yangi zamon falsafiy tafakkuri bilan tanishtirish.</i> - <i>Yevropa yangi zamon falsafiy tafakkuri-ning shakllanishini yoritish.</i> 	<p><i>O'quv faoliyatining natijasi:</i></p> <p><i>O'rta asrlar Yevropa madaniyatining mazmunini aytib beradi.</i></p> <p><i>O'rta asr Yevropa falsafasidagi nominalizm va realizm, apologetika, patristika, va sxolastika g'oyalarini sanab beradi.</i></p> <p><i>Yevropada XV – XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va yangi zamon falsafiy tafakkuri bilan tanishadi va taxlil qiladi.</i></p> <p><i>Rim falsafasi namoyandalari: J.Bruno, N.Kopernik, F.Bekon, T.Gobbs karashlarini gapirib beradi.</i></p> <p><i>Nemis, ingлиз, fransuz faylasuflarining falsafiy karashlarini taxlil qiladi.</i></p>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, «T-sxemasi» texnikasi, baxs-munozara, FSMU texnologiyasi.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, kompyuter texnologiyasi, proyektor, («Falsafa» fanidan elektron o'quv-uslubiy majmua), slaydlar, tarqatma manba.
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri va guruxlarda ishlash
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini kullash mumkin bulgan ukuv xona.
<i>Monitoring va baxolash</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat.

Маърузанинг технологик харитаси

Ish jarayonlari vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	o‘qituvchi	tinglovchi
1 bosqich. Kirish (10daqiqa)	<p>1.1. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qiladi, o‘quv mashg‘u-lotining maqsadi va natija-larini tushuntiradi.</p> <p>1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baxolash mezonlarini e’lon qiladi.</p> <p>1.3. Tinglovchiga mavzu bo‘yicha tar-qatma materiallarni tarqatadi.</p> <p>1.4. Mavzu bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotining tayanch iboralari va ma’ruza rejasiga izox beradi (1-Ilova).</p> <p>Mavzu yuzasidan blits-so‘rov usu-lida ma’lum bo‘lgan tushunchalarini faollashtiradi, savollar beradi (2-ilova)</p> <p>Javoblarni to‘g‘rilaydi va xulosalaydi.</p>	<p>Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladilar</p> <p>Tarqatmalardan foydalanadi</p> <p>Tayanch iborala bilan tanishadi</p> <p>Savollarga javob beradi</p>
2 bosqich. Asosiy jarayon (60daqiqa)	<p>2.1. O‘rta asrlar Yevropa madaniyati va falsafasidagi ta’li-motlarni slaydlar yordamida taxlil qiladi (3-Ilova).</p> <p>Tinglovchilarni e’tiborini asosiy fikrlarga qaratadi va xulo-salaydi.</p> <p>2.2. Yevropada XV–XVII asrlar-dagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarish-lar va yangi zamon falsafiy tafakkurining shakllanishi va asoschilari savoli yuzasidan qisqa ma’ruza o‘qiydi. Ekranga “Tsxemasi” jadvali chiqariladi va uning asosida tinglovchilar bilan savol-javob uyushtiriladi (4-Ilova).</p> <p>Javoblarni tinglaydi va xulo-salaydi</p> <p>2.3. Nemis, ingliz, fransuz faylasuflarining falsafiy qarash-larini</p>	<p>Tinglaydi. Yozadi, slaydga e’tibor qaratadi, savol beradi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, savollar beradi, juftli guruxlarga bo‘linib, organay-</p> <p>zerli jadvalni to‘ldiradi.</p>

	<p>tushuntiradi.</p> <p>FSMU texnologiyasidan foydalanim “Yevropa Yangi davr fal-safiy qarashlarining axamiyati nimada?” savolini o‘rtaga tash-laydi. (5-Ilova)</p> <p>Berilgan javob fikrlarini umumlashtiradi qo‘sishimcha qiladi.</p>	<p>Juftli guruxlarga bo‘linib FSMU jadvalini to‘ldiradi</p>
3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qilinadi.</p> <p>3.2. Tinglovchilarning bilim va ko‘nikmalari baxolanadi.</p> <p>3.3. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun topshiriq beradi:</p> <p>(1). Nazorat savollariga og‘zaki javob berish (6-Ilova).</p> <p>(2). “Nemis falsafasining o‘ziga xosligi” mavzusida esse yozib kelish topshiriladi. (7-ilova)</p>	

Amaliy mashg‘ulotni o‘qitish texnologiyasi

<i>Tinglovchilar soni: 20</i>	<i>Vaqti: 2 soat.</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustaxkamlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulot
<i>Amaliy mashg‘ulot rejasi</i>	<p>Yevropa o‘rta asrlar falsafasi. Yevropada uyg‘onish davri va undagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. XVII-XIX asr Yevropa falsafasi. Yevropa falsafasini o‘rganishning hozirgi davrdagi ahamiyati.</p>
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi</i>	O‘rta asr va yangi davr Yevropa falsafiy ta’limotlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifa:</i> -Yevropa o‘rta asrlar davri falsafasi xaqi-dagi bilimlarni mustaxkamlash; - Yevropa Yangi davr falsafiy ta’limotlar xaqidagi bilimlarni chuqurlashtirish; - XVII – XIX asr Yevropa falsafasi asoschilarining qarash-larini taxlil qilish va mustaxkamlash;	<p><i>O‘quv faoliyatining natijasi:</i> <i>Yevropa o‘rta asrlar davri falsafasining mazmunini so‘zlab beradi;</i> <i>Yevropa Yangi davr falsafiy ta’limotlarini sanab beradi va taxlil qiladi;</i> <i>XVII – XIX asr Yevropa falsafasi asoschilarini fikrlarining falsafa fanining taraqqiyotidagi roliga baxo beradi;</i></p>
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>	Amaliy mashg‘ulot, baxs-munozara, kichik guruxlarda ishlash, grafikli organayzer, “Nima uchun” texnikasi, “Muammoli vaziyat” uslubi.
<i>O‘qitish vositalari</i>	Darslik, markerlar, kog‘ozlar, doska, bo‘r, kompyuter texnologiyasi
<i>O‘qitish shakli</i>	Jamoa va guruxlarda ishlash
<i>O‘qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o‘qitish usullarini qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.
<i>Monitoring va baxolash</i>	Og‘zaki nazorat, yozma nazorat, o‘quv topshiriq.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

